



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI

DUNYO DINLARI TARIXINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY QARASHLAR

MODULI BO'YICHA
O'Q UV- USLUBI Y
MAJMUA

2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“Dunyo dirlari tarixini o‘rganishda zamonaviy qarashlar”
moduli bo‘yicha**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUА

Toshkent – 2024

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: N.Abdullayeva – falsafa fanlari doktori, prof.v.b.

Taqrizchi: B.Jalilov. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	ERROR! BOOKMARK NOT DEFINED. 6
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	2 ERROR! BOOKMARK NOT DEFINED.
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	925
V. KEYSALAR BANKI	99
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	99
VII. GLOSSARIY	101
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	111

I.ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, biologiya fanini o‘qitishda IT (information texnologiyalar) ma’lumot materiallaridan foydalanish, biologik makromolekulalar va ularning axamiyatini ochib berish, organizmda energiya almashinuv jarayonlarini tahlil etish va baholash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion

yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

“Dinshunoslik” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minalash;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minalash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“Dinshunoslik” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minalash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejali, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;

- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
 - zamonaviy ta’limning global trendlarini;
 - inson kapitalining iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagi ahamiyatini;
 - oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
 - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini;
 - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
 - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
 - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
 - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
 - pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
 - ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
 - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
 - dunyo dinlari tarixini o‘rganishda zamonaviy qarashlarni;
 - dunyo dinlariga xos umumiy va xususiy jihatlarni;
 - dunyo dinlarini mintaqaviy xususiyatlariga qarab o‘rganishning ahamiyatini;
 - din falsafasi, sosiologiyasi, psixologiyasini;
 - diniy mutaassiblikka qarshi O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligini;
 - hozirgi kunda davlat va din munosabatlariga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan chiqarilayotgan farmonlar va ularni ijrosini;

- diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlarni;
- diniy manbalarning tadqiq usullarini;
- islom manbashunosligi masalalarini;
- Qur'on tafsirlari., Hadislarga yozilgan sharhlarni;
- nashr etilgan dinga doir yangi manbaalarni o'rganish masalasini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitelarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
- o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;

- dinni antropologik o‘rganish;
- urug‘-qabila dinlarini o‘rganishda arxeologik manbalarning ahamiyatini ochib berish;
- Jahon dinlarining qadimiy va hozirgi kundagi jihatlari orasidagi farqlarni ajratish;
- diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish;
- Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rnini tahlil etish;
- yahudiylik va xristianlik manbalarini o‘rganishda Abu Rayhon Beruniy asarlarining o‘rnini ochib berish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
 - Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
 - o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
 - meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
 - an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
 - onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
 - pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
 - OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
 - OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
 - professor-o‘qituvchilarining tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
 - innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
 - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
 - o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarining ijodiy

imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;

- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
- kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’milot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlarni baholash;
- diniy mutaassiblikka qarshi diniy bag‘rikenglikning diniy manbaviy asoslarini o‘zlashtirish;
- diniy manbalarning tadqiq usullaridan foydalanish;
- Qur’onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarni olib borish;
- nashr etilgan dinga doir yangi manbaalardan foydalanish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo’llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy

asoslari ni amaliyotga tadbiq etish;

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limi (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- Dunyo dinlari tarixini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rmini tahlil etish;
- O'zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy xayotning turli jabhalariga tadbiq etish jarayonlarini baholash;
- diniy mutaassiblikka qarshi O'zbekistonda keng qamrovli diniy ma'rifat ishlarining amalga oshirilayotganligining amaliy ahamiyatini yoritib berish;
- ibridoiy, urug'-qabila dinlarini o'rganishga oid manbalarni o'zlashtirish;
- O'zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termizi halqaro markazi, Termiz)), fiqx ilmi (Marg'inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma'rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlarni amaliy ahamiyatini yoritib berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

- Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.
 - Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:
 - ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
 - o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyiligi

"Dunyo dinlari tarixini o'rganishda zamonaviy qarashlar" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari", "Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari", "Pedagogik

faoliyatda raqamli kompetensiyalar” “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Dinshunoslik fanining rivojlanishida manbashunoslik masalasi.” mutaxassislik o’quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida genom tadqiq etishga, katta ma’lumotlar va nukleotid va oqsil ketma-ketliklar ma’lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish va amalda qo’llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

“Dunyo dinlari tarixini o‘rganishda zamonaviy qarashlar” Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amai mashg’ulot	Ko‘chma mashg’ulot
1.	Dunyo dinlariga xos umumiylar va xususiy jihatlar.	4	2	2	
2.	Dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlar.	10	2	2	6
3.	O‘zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy xayotning turli jahbalariga tadbiq etish jarayonlari	4	2	2	
4.	O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligi.	10	2	2	6
	Jami:	28	8	8	12

NAZARIY VA AMALIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Dunyo dinlariga xos umumiylar va xususiy jihatlar.

Dunyo dinlariga xos umumiylar va xususiy jihatlar. Dunyo dinlarini mintaqaviy xususiyatlariga qarab o‘rganishning ahamiyati. Dunyo dinlari tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni. Din falsafasi. Din sotsiologiyasi. Din psixologiyasi. Dinni antropologik o‘rganish

2-mavzu: Dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlar.

Dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlar. Urug‘-qabila dinlarini o‘rganishda arxeologik manbalarning ahamiyati. Jahon dinlarining qadimiy va hozirgi kundagi jihatlari orasidagi farqlar. Diniy mutaassiblikka qarshi diniy bag‘rikenglikning diniy manbaviy asoslari.

3-mavzu: O‘zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy xayotning turli jahbalariga tadbiq etish jarayonlari.

Diniy qadriyatlar. O‘zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy xayotning turli jahbalariga tadbiq etish jarayonlari.

4-mavzu: O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligi.

O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligi. Hozirgi kunda davlat va din munosabatlari doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan chiqarilayotgan farmonlar va ularni ijrosi.

O‘QITISH SHAKLLARI

- Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdag‘i “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjalari to‘plami. -T., 2013.
2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.
3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
5. Virtualnaya realnost kak novaya issledovatel’skaya i obrazovatel’naya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy журнал «Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy slujbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.
6. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.
7. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovyyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
8. Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporozko V.V. Internet-texnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporozko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s.
9. Kononyuk A.Ye. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf

10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
11. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.
12. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
13. Tendensi i razvitiya visshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.
14. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoyev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
16. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
20. Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
21. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
22. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
24. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
25. Kodjapirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ -M.:Ayris-press, 2016.
26. Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
27. Sergeyev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.
28. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 edition 2015. - 350 pp.
29. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.

30. Karimova V.A., Zaynudinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari.– T.: “O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. – 192 b.
31. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN. 2015. – 572 b.
32. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
33. Tashanov A. Mutassiblikning ko‘rinishlari va oqibatlari. –Toshkent: Akademiya, 2011. -32 b.
34. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. - T.: Toshkent Islom universiteti. 2013.
35. Abdusamedov A.E., M.I.Xo‘jayev, G.A.Saparova, Sh.Qarshiyev. Dinshunoslik. Uslubiy qo‘llanma. –T.: Istiqlol nuri. 2013.
36. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar. –T., Turon zamin ziyo, 2015. 400 b.
37. Dunyo dinlari tarixi / Tuzuvchilar: S.Agzamxodjayev, D.Rahimjonov, N.Nurmuhamedov va b. – T.: ToshDSHI, 2011. – 262 b.
38. Islom va hozirgi zamон / O‘quv qo‘llanma.– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. - 207b.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.Ziyonet.Uz
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

«FSMU»metodi

Texnologiyaningmaqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalgaoshirishtartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har birishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Dinlarnio‘rganishda samaraliuslublrdanbirimintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMUorqalitahlil qiling.

Dinning mohiyati nima?

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysidi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:“Mavzugaoitushunchalartahlili”

Tushuncha	Hal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar
<i>Qiyosiy dinshunoslik</i>			
<i>Vijdon erkinligi</i>			
<i>Din sosiologiyasi</i>			
<i>Totem</i>			

Izoh: Bo'sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalgaoshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangimavzumohiyatiniyorituvchimatnta'limoluvchilargatarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lif oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-	2-
"V" –tanishma'lumot.		
"?" –mazkurma'lumotni tushunmadim,izohkerak		
"+" bu ma'lumotmen uchun yangilik		
"–" bu fikryokimazkurma'lumotga qarshiman?		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lif oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Bumerang”texnologiyasi

Maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Amalgaoshirish bosqichlari:

1.Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ularidan materialni 5daqika davomida sinchiklab o'rganish talab etiladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot haqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot haqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.

4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol shakllantiradi.

5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.

6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhnini e’lon qiladi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

<i>I- guruxgavazifa</i>	Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomonidan katta hajmdagi video materiallar bilan ishslashni osonlashtirsa, ikkinchi tomonidan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi Bizni qiziqtirgan video tasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez vaqtida aniqlikda tanlab olish mumkin. Multi skript o‘z ichiga uchta blokni oladi—pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Video materialni ko‘rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Video tasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishni uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi: <ul style="list-style-type: none">- <i>pleer tagida joylashgan kursor yordamida;</i>- <i>“Stenogramma” blokida matn fragmentini bosib;</i>
-------------------------	---

<p>2- guruxgavazifa</p>	<p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda Suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo'yiladi. Slayd-shou ovozbilanbirgalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya'ni audiositatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan To 'yintirilgan matnni o'z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqeа joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturala rvah.k. bo'lishi mumkin. Butexnologiya reportaj, ocherk, ba'zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</i></p>
<p>3- guruxgavazifa</p>	<p><i>Audi oslayd-shou – zamonaviy jurnalistikating Multimediyaviyiligi sabab yaratilgan foto illyustratsiyalashtirishning sintetik varianti bo'lib, mustaqil janrga aylandi .Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo'lgan. Ba'zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbird ayozib olingan ovozni qo'llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo'yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozisiya yoki muallif o'qigan matn bo'lishi mumkin. Mazmunning asosi bo'lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audio sitata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqeа sodir bo'lgan joyidan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>
<p>4- guruxgavazifa</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo'lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, ob'ektlarni, peyzaj, joylarn itasvirga olishda ularning masshtabini ko'rsatishda aktualdir. - Interaktiv foto–shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo'yilgan bo'lib, ularni bosganda matn, video, ssylka, ijtimoiy to'rlarning statuslari chiqadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: Dunyo dinlariga xos umumiy va xususiy jihatlar

REJA:

1.1. Dinshunoslik fanining mohiyati, maqsada va, vazifalari.

1.2. Dunyo dinlarni o'rganishda zamonaviy qarashlar.

1.3. Dunyo dinlarni o'rganishda mintaqaviy yondoshuv

Tayanch iboralar: Din, dinshunoslik, diniy manba, dindor, teologiya, *dunyo dinlari*.

1.1. Dinshunoslik fanining mohiyati, maqsada va, vazifalari.

Dinshunoslik fani talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qilishi lozim. Din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish Respublikada demokratik, huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda talabalarga dinshunoslik fanini o'qitish muhim masalalardan biriga aylandi. Ushbu fan bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, buning uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutaxassislar bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish mazkur ishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dinshunoslik fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadga erishish uchun ustozlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- dinshunoslikdan ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida faqat o'quv qo'llanmasi, risolalarda muayyan mavzuga oid keltirilgan g'oya, fikr-mulohazalar bilan chegaralanmasdan, balki diniy asarlar matnlari, birlamchi manbalar, muayyan din muqaddas kitoblaridan foydalanish;

- talabalarda din haqida xolis, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish, olgan bilimlari asosida konkret voqeja va hodisalarga nisbatan ongli ravishda o'z shaxsiy fikrlariga ega bo'lishlarini ta'minlash;

- talabalarda fuqarolarning xatti-harakatlari vijdon erkinligi to'g'risidagi Qonunga mos yoki zid ekanligini aniqlash imkoniyatini shakllantirish;

- mustaqil O‘zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi, dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik har bir kishining shaxsiy ishi ekanligini talabalarga tushuntirish;

- din ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi, uni siyosiylashtirish qonunga zid ekanligini uqtirish.

Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga qat’iy amal qilish talab etiladi:

- ta’lim berish jarayonida fanga chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik bilan yondashish;

- talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, ularning diniy his-tuyg‘ulariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;

- dinni qo‘pol, ateistik ruhda tanqid qilish yoxud turli diniy g‘oyalarni ko‘r-ko‘rona targ‘ib etish, bir din vakillarida boshqa din vakillariga nisbatan dushmanlik hissini uyg‘otish qonunga zid ekanligini nazarda tutish.

Dinshunoslik fani bo‘yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar:

- o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, dini, shu jumladan, islom dini qadriyatları, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta’rif va tavsiflarni dinshunoslik fanini o‘rganishda dasturulamal, nazariy asos qilib olish;

- O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan millatlararo tinchlik va dinlararo bag‘rikenglikni asrab avaylash, turli aqidaparast oqimlarga qarshi yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish malasini bosh mezon deb bilish;

- dinshunoslik fani asosiy fanlar qatorida o‘qitilishi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosat o‘rnatalishi, fuqarolar uchun vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi mustaqillik sharofati ekanligini tushunib etish;

- O‘zbekiston Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi Qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda din masalasi yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy jamoa huquqlari va majburiyatlarini bilish;

- qonunga hurmat hissini, faqat o‘zining emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg‘ulari bilan hisoblashish lozimligini, o‘z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o‘tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalb etish g‘ayriqonuniy xatti-harakat ekanligini, jamoat joylarida diniy masalalarda zo‘ravonlik, mutaassiblikka, agressivlikka yo‘l qo‘yish mumkin emasligini chuqur tushunib etish;

- dinshunoslik fanining boshqa gumanitar fanlar bilan birga rivojlanishini nazarda tutgan holda, o‘zi qo‘lga kiritgan soha yutuqlaridan ushbu fanni o‘zlashtirishda foydalanish.

“Dinshunoslik”ni o‘rganishning nima zarurati bor? Har qanday jamiyat ma’naviy hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri xilma-xil dinga mansub kishilar o‘rtasida birlik va hamijihatlik muhitining mavjudligidir. Ayni paytda, bu muayyan yurtning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlaydi, bir

makon va bir zamonda turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning bir butun xalq sifatida hayot kechirishining muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Diniy e'tiqodlarning mohiyati umumiy ekaniga qaramasdan, dirlarning ko'rnishi xilma-xil. Dunyoda juda sodda, qadimiy dinlar bilan bir qatorda, umumjahon ahamiyatiga molik, murakkab, jahon dinlari ham mavjud. Ular tarixiy zaruratga qarab, turli davrlarda vujudga kelgan.

Ma'lumki, qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardo'shtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatlari, og'ir davrlarida ham yurtimizdag'i mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu — yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Barcha zamonlar va davlatlar uchun dolzarb bo'lgan bu masala bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va din vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy va diniy nizolar bo'limgani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dinlararo bag'rikenglik nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutgan, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblangan g'oya sifatida e'tirof etildi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu g'oya demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan mamlakatimiz turli dinlarga mansub kishilarning manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasidagi totuvlikni ta'minlash borasidagi ishlarning asosiy mezoniga aylandi.

Mustaqillik yillarida dinga yaigicha qarash va munosabat natijasida biz uchun nisbatan yangi bo'lgan "Dinshunoslik" fani vujudga keldi.

Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad talabalarga dinning kelib chiqishi, evolyusiyasi, hozirgi davrdagi holati, insoniyatni hayotida tuggan o'rni haqida umumiy ilmiy tushunchalar berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi hududida VIII asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi sababli uning shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va millatni boyitishga qo'shgan hissasi xususida yoshlarni ilmiy, falsafiy bilimlar bilan qurollaitirish ko'zda tutiladi.

Milliy va diniy qadriyatlarning tarixan rivojlanishi, ularning umuminsoniy qadriyatlarga ulanishi, hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyatini chuqurlashtiradi.

Dinshunoslik fanining mazmuni talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'naliishlari, mazxablari haqida chuqur ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlari asosli taxlil qila oladigan ilmiy dunyoqarashni yuksaltirishdai iborat.

Dinshunoslik fanini o'qitish va o'rganishning vazifasi quyidagilardan iborat:
- dinshunoslikni o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik tarixiylik xolislik tamoyillariga amal qilinadi;

- talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, diniy his-tuyg‘lariga ehtiyotkorlik bilan munosabagda bo‘lish talab etiladi. Dinni qo‘pol (ateistik ruhda) tanqid qilish yoxud diniy va’zxonlik qilish, bir dinni ikkinchi dindan ustun qo‘yish qonunga zid ekanligi e’tiborga olinadi;
- dinshunoslikdan ma’ruza, amaliy (seminar) mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish jarayonida faqat o‘quv qo‘llanmasi, risolalarda muayyan mavzuga oid keltirilgan boyta, fikr-mulohazalar bilan chegaralanmasdan, balki diniy matnlar, birlamchi manbalar, muqaddas kitoblari asosida tahlil qilinmog‘i maqsadga muvofiqdir;
- talabalar mazkur fan mazmunini chuqur o‘zlashtirishlariga ershish ularda din haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, olgan bilimlari asosida konkret voqealarni xodisalarga nisbatan ongli ravishda o‘z shaxsiy fikrlariga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi;
- ushbu fan talabalar yoki boshqa shaxslar muayyan hatti-harakatlarining davlat qonunlariga, vijdon erkinligi tushunchasiga moyil yoki moyil emasliklarini aniqlash imkoniyatini shakllantirishi lozim;
- mustaqil O‘zbekistonda din, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik har bir kishining shaxsiy ishi ekanligi talabalarga tushuntiriladi. Din ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida uni siyosiylishtirishga yo‘l qo‘ymaslik lozimligini uqtirish kursning asosiy va muhim vazifalaridan biridir.

Dinshunoslik fani bo‘yicha talabalarning bilimiga, o‘quviga va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, dini, shu jumladan islom qadriyatları haqida bildirgan fikr va xulosalari, ta’rif va tavsiflari dinshunoslik fanini o‘rganishda dasturul amal, nazariy asos bo‘lishi talab etiladi;
- dinshunoslik fan sifatida tiklanishi va o‘quv tizimiga kiritilishi, uning ilmiyliq tarixiyliq ob’ektivliq shaxsiy va ijtimoiy hayot bilan bog‘liqlik tomonlarini chuqur idrok etishga erishiladi;
- dinshunoslikni asosiy fanlar qatori o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidanadolatlisiyosatning o‘rnatalishi, vijdon erkinligining fuqarolarga konstitutsion kafolatlanishiga tushunib yetishi zarur;
- dinning ta’rifi, tavsifi, ta’limoti va ijtimoiy hayotdagagi o‘rnini o‘rganishga ikki xil yondashuv mavjudligi: e’tiqod (ilohiyot-teologiya) fani jihatidan va tadqiqot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Har ikkala nuqtai nazar natijasida to‘plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma’lumotlarning kishilik jamiyatni uchun o‘lkan ahamiyatini e’tirof etish muhim;
- O‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma’naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish O‘zbekistan Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, ayni vaqtda bu xudduddagi ilk zamondan xozirgacha mavjud bo‘lgan dinlar tarixi, diniy tajriba tadjiriy taraqqiyotini o‘rganish talabalarda Vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevish va faxrlanish xis-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi lozim;

- talabalardan O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi yangi taxrirdagi Qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda diniy masala yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy jamoa huquqlari va majburiyatlarini bilish talab etiladi;
- din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish Respublikada demokratiq huququy jamiyat qurish poydevorini musthkamlashga xizmat qiladi. Binobarin, talabalardan qonunga hurmat hissini, o'zinigina emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg'ulari bilan hisoblashish, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalb etish g'ayriqonuniyhatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo'ravonliq mutaassiblikka, tajovuzkorlikka yul qo'ymaslikni chuqur tushunib etish talab etiladi;
- O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiatiga kirib borayotgan bir sharoitda dinshunoslik fanini o'qitish jarayonida talabalarda va ular orqali fuqarolarda turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga erishish ruhida tarbiyalash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dinshunoslik fani o'quv rejasidagi ijgimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda , rivojlangan va hozirda ham shu jarayon davom etmoqda.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida dinshunoslik fanini faqat so'z yordamida o'qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, audio, video, kinoapparatura va kompyuterlari bo'lgan oliy o'quv yurtlarida muayyan dinlarning kelib chiqish tarixi, diniy yo'nalishlar, mazxablar haqida hikoya qiluvchi o'quv fe'lmlari, slaydlarni namoyish etish, CD kompaktdisklar, xarita, sxema, fotografiya va boshqalardan foydalanish mumkin.

1.2. Dirlarni o'rganishda zamonaviy qarashlar.

Dinshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan, rivojlangan va hozirda ham shu jarayon davom etmoqda. O'zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan va jahon hamjamiatidan ajratilib yashagan bir davrda G'arbda XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan dinshunoslik fani ancha yo'l bosib o'tib, ko'plab ilmiy natijalarga erishdi. Mustaqillik yillarda O'zbekiston tadqiqotchilarini bu yangi soha bilan yaqindan tanishib, mutaxassis kadrlarni tarbiyalay boshladilar. Ular dinshunoslikni sotsiologiya, psixologiya, falsafa, antropologiya, filologiya, tarix fanlari bilan bog'liq holda o'rganishlari kerak. Zero, dinshunoslik fani mazkur fanlar bilan hamkorlik qilib tutashgan erida uning turli sohalari vujudga kelgan.

Qadim zamonlardan boshlab falsafiy tafakkurda din masalasi faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Dinga turlicha ta'rif va tavsiflar berilgan. Falsafiy dunyoqarashda dinni g'oyalar tizimi sifatida tahlil etuvchi din falsafasi yo'nalishi shakllangan.

Psixologiya fani tarmoqlari murakkab hodisa bo'lgan dinni inson ruhiyati bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Buning natijasida din psixologiyasi fani shakllangan va rivojlangan. Shuning uchun ham dinshunoslik asoslarini o'rganishda psixologiya fanining ko'p sonli yutuqlariga suyanish muhimdir.

Muayyan jamiyatda diniy ta'limotning tarqalishi, uning kishilar ongiga ta'sir darjasи (diniy ong darjasи), ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotga ta'siri va rolini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar xulosalariga murojaat qilinadi. Keyingi ikki asr davomida dinni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi din sotsiologiyasi fani barq urib rivojlandi.

Dinning ta'rifi, tavsifi, ta'limoti va ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganishda turli yondashuvlar mavjud, masalan: 1) ilohiyot (teologiya) fani jihatidan; 2) tanqidiy-ateistik va 3) ilmiy nuqtai nazardan. Kishilik jamiyat uchun har qaysi yondashuv natijasida to'plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma'lumotlar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari dinshunoslikning din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din etnologiyasi, din tarixi, din aksiologiyasi, din geografiyasi, din tipologiyasi kabi sohalari mavjudki, ularning yutuqlaridan ham dinshunoslik fanini o'qitish va o'rganishda foydalanish mumkin.

Endi *din*, *dinshunoslik*, *din falsafasi*, *teologiya*, *teosofiya*, *xudojo 'ylik* tushunchalari xususida to'xtalib o'tsak. Din tushunchasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. Din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarни tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir. *E'tiqod* so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, chuqur, mustahkam ishonch ma'nosini anglatadi. Demak, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishonish tushuniladi. Ilohiyot, ya'ni diniy ta'limot nuqtai nazardan "din", "diniy e'tiqod" tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma'nosи, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo'lgan, uni go'yo yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir "to'g'ri", "haqiqiy", "odil" hayot yo'llarini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Din – tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotdir. U muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatлари orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyatning ilk tarixidan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Dinshunoslik dinning paydo bo'lishi va rivojlanishy tarixini, uning ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlarini, turli xil dirlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fan, ta'limot va o'kuv predmetidir. U dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lishidan urug'-qabila, milliy va jahon dirlari paydo bo'lgan davrda yuz bergen jarayonni hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy, hodisalarни, ma'naviy omillarni - mafkura va aqidalar, urf-

odat va marosimlar, masjvd va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, taxlil qilishni ko'zda tutadi.

Din falsafasi jahon va milliy dinlar shakllanishi jarayonida shakllangan diniy ta'limotlar, qarashlar va ularning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligini o'rganadi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san'at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm doirasiga kiradi.

Teologiya xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy talimotlar majmui. "Teologiya" atamasi ("deus" – Xudo, "logos" – ta'limot) qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. "Teologiya" so'zi ilohlar to'g'risidagi dostonlarda qo'llanilgan, bunday asarlarning mualliflarini esa teologlar deb atashgan. Arastu "teologiya" atamasidan falsafaning muayyan qismini belgilash uchun foydalanib, mazkur atamani sharhlashda burilish yasadi. U nazariy falsafani matematika, fizika va teologiyaga ajratdi. Arastu ilohiyot ilmini "birinchi falsafa", oliv mushohada fani yoki "oliv falsafa" deb nomladi. U ilohiyot ilmini borliq, uning ibtidosi va mavjudligi sabablari to'g'risidagi fan sifatida belgilab berdi. Teologiya Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologianing asosiy manbalari qisoblanadi. Teologiya turli diniy o'quv yurtlari — seminariyalar, akademiyalar, madrasalar va boshqalarda o'qitiladi. Teologiya tushunchasi avvalo iudaizm va xristianlikka nisbatan qo'llangan. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalari bilan ham ataladi Teologik yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan.

Teosofiya (yunoncha: "ilohiy donolik") - XIX asr oxirida Aqshda rus muhojiri Elena Blavatskiy asarlari asosida shakllangan diniy ta'limot. Diniy tadqiqotchilar tomonidan yangi diniy harakat va g'arbiy ezoterizmning okkultistik qismi sifatida tavsiflanadi. Bu hinduizm va Buddizm kabi Osiyo dinlari hamda gnostitsizm va neoplatonizm kabi qadimgi Evropa falsafalariga asoslanadi. Blavatskiyning so'zlariga ko'ra, teosofiya ruhiy adeptlarning qadimiylari yashirin birodarligi borligini o'rgatadi, ular asosan Tibetda to'planganlar. Teosofistlar bu o'qituvchilar buyuk donolik va g'ayritabiiy kuchlarni rivojlantirgan deb hisoblashadi va teosofistlar ham o'zlarining ta'limotlarini Blavatskiy orqali tarqatib, zamonaviy teosofik harakatni boshlaganlariga ishonishadi.

Xudojo'ylik bu xudoga shu qadar kuchli ishonadigan odamning ma'naviy va axloqiy sifati, u o'zining barcha so'zlari va harakatlarini uning amrlari bilan tekshiradi, muntazam ibodat qilish va cherkov hayoti qoidalariiga rioya qilish orqali Xudoning ko'magi va rahm-shafqati bilan yashaydi. Taqvodorlik, ayniqsa, hayotning ma'naviy va axloqiy asoslari qo'yilgan bolalikdan boshlanishi muhim hisoblanadi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida dinshunoslik fanini faqat so'z yordamida o'qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqli. Masalan, audio, video, kinoapparatura va kompyuterlar yordamida dinlarning kelib chiqishi, tarixi, diniy yo'nalishlar, mazhablar haqida hikoya qiluvchi o'quv

filmlari, slaydlarni namoyish etish uchun kompaktdisklar, xarita, sxema, fotosurat va boshqalardan foydalanish mumkin.

Kurs o‘qitishning birinchi soatlaridan boshlab ma’ruza, amaliy (seminar) mashg‘ulotlarining mavzulari va shunga oid tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiriladi. Tarqatma materiallar va boshqa o‘quv hujjatlari talabalarga ko‘paytirib berilishi ham mumkin. Shu bilan birga kurs bo‘yicha mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, mustaqil bilim olish yuzasidan talabalarga uslubiy yo‘llanmalar beriladi.

1.3. Dirlarni o‘rganishda mintaqaviy yondoshuv

Dirlarni o‘rganishda muayyan mezon asosida yondashib, tadqiq etish lozim bo‘ladi. Bu dirlarning tarixi, e’tiqodiy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir-biriga qilgan ta’siri kabi jihatlarining chuqur va har tomonlama mukammal o‘rganilishiga zamin yaratadi.

Dinshunoslar turli ilm-fan sohalari vakillari bo‘lib, dirlarni o‘zlari xos bo‘lgan ilm yo‘nalishi nuqtai nazaridan o‘rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun bular o‘rtasida ba’zi tafovutlar bo‘lishi tabiiy. Masalan, din tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar dirlarning yuzaga kelish tarixiga ko‘ra **davriy jihatdan** yondashib tadqiq etganlar. Ba’zi dinshunoslar tarix fanidan ta’sirlanib, dirlarni tarixiy jihatdan yondashib o‘rganganlar. Bir guruh olimlar mintaqqa nuqtai nazardan dirlarni paydo bo‘lib, tarqalgan va dunyoning turli mintaqalariga ko‘chib borishi, mintaqaga xos milliylik kasb etishi kabi jihatlarni tadqiq etganlar. Ayrim bir gurux olimlar dirlarni paydo bo‘lgan va tarqalgan **mintaqalariga ko‘ra** tadqiq etganlar.

Dinlar tarixini o‘rganishda mintaqaviy yondashuvning o‘ziga xos jihat shundaki, mintaqadagi aynan bir dinni ikkinchi dinga ta’siri va o‘zaro qorishuvi, yoki turli mintaqqa dinlarini o‘zaro o‘xhash jihatlari yoki farqli tomonlarini o‘rganishdan iborat.

Misol tariqasida, L.S. Vasilevning «Istoriya religiy Vostoka», S.A.Tokarevning «Religiya v istorii narodov mira» kitoblari bilan tanishib chiqsak, dinlar tarixini mintaqaviy jihatdan o‘rganganliklarini kuzatishimiz mumkin.

S.A.Tokarevning «Religiya v istorii narodov mira» kitobida dinlar tarixini o‘rganishda dunyoni geografik joylashuviga qarab, mintaqalarga bo‘lib olgan holda tadqiq etgan. Masalan, Avstraliya va Tasmaniya dirlari, Amerika dirlari, Uzoq Sharq dirlari, Volga bo‘yi dirlari, Markaziy Amerika dirlari kabi.

L.S.Vasilevning «Istoriya religiy Vostoka» kitobi Sharq dirlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan bo‘lib, bir dinning turli hududlardagi ko‘rinishlari tadqiq etgan. Masalan, Hindistonda buddizm, Xitoyda buddizm, Yaponiyada buddizm kabi. Bundan asosiy maqsad, ayni bir dinning turli mintaqalarda ko‘rinishlarini to‘laligicha ochib berish va har tomonlama tahlil qila bilishdan iborat. Chunki, dinni umumiy holda mintaqalarga bo‘lmasdan o‘rganadigan bo‘lsak, ayrim jihatlari e’tibordan tashqarida qolishi mumkin.

Dinlar tarixini mintaqaviy o‘rganish orqali, mintaqadagi bir dinning

ba'zi jihatlarini boshqa bir dinga o'tish hollarini ham kuzatish mumkin. Asl tarixiy kelib chiqishi bir o'zakka borib taqaladigan diniy guruhdagi biror din bilan o'zaro ta'sir jarayonida diniy g'oyalar tarixiy kelib chiqishi jihatidan bir aslga taalluqli boshqa bir dinda saqlanib qoladi. Dinlar boshqa bir dindan o'tib, o'rnashib tarqalishi mumkin bo'lgan g'oyalarni, urf-odat, an'ana va marosimlarini o'zlashtiradi. Inqirozga yuz tutganda ham ular yangicha shakllarda namoyon bo'ladi va davomiy hayotda yashayveradi. Uning asl dini tarixiy jihatdan o'z nihoyasiga etib, o'lgan biror din yoki mazhab ustidan og'ir hukm chiqargan yagona asosga borib taqaladigan din va mazhab guruhida o'zaro diniy g'oya va e'tiqodlar bir-biriga ko'chib o'rnashadi. Bu dinning g'oya va aqidalari diniy majmuasi tarkibidan bo'lgan boshqa din yoki mazhab ichida mavjud bo'lib davom etadi.

Umuman, bir diniy o'zakka taalluqli bo'lgan dinlar guruhi tarkibidagi diniy g'oyalar o'zaro meros bo'lib o'tadi. Tarixda biror dinding o'z nihoyasiga etganini ko'rsak, bu uning diniy g'oyasi butkul o'lganligini bildirmaydi. Dinlar tarixida bunga ko'plab yorqin misollar bor. Masalan, qadimgi brahmanlik diniy g'oyalari butkul o'lgan emas, balki hinduiylik, buddaviylik, jayniylik dinlarida davom etib, yashab kelmoqda. Shuningdek, ibtidoiy diniy g'oyalar hozir ham yo mustaqil shaklda, yo ba'zi zamonaviy dinlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud.

Masalan, Afrika qit'asida xristianlik va islom dinlari tarqalganidan so'ng u erdag'i ibtidoiy diniy qarashlar bilan uyg'unlashgan. O'zining ibtidoiy qadriyatlaridan xalos bo'la olmagan afrikalik dindor ularni yangi din bilan omuxta qilgan. Shuningdek, ibtidoiy qarashlarga asoslangan dinlar Uzoq Sharq dinlari bilan uyg'unlashib, ularning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Ayni bir muhitda keyinchalik paydo bo'lib, ma'lum davr yonma-yon davom etib kelgan va tarixiy jarayonda o'z nihoyasiga etgan ko'plab qadimgi dinlarda o'zaro nomutanosiblik yuz bergen.

Markaziy Osiyo mintaqasiga oid misollarga to'xtalsak. Ma'lumki, mazkur mintaqaga kirib kelishi bilan erlik aholiga yangicha e'tiqod, ibodat va marosimlar kirib keldi. Biroq, shubilan birga islom diniga Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlari, an'analari, mentaliteti o'z ta'siri ko'rsatdi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Me'morchilik. Ma'lumki, islom dunyosining asosiy belgilari, qadriyatlar masjid va madrasalar bilan bog'liq. Saudiya Arabistonidagi Masjid al-Haram, masjid an-nabaviy, Misrdagi al-Azhar universiteti va Muhammad Ali yoki Amr ibn Os masjidlari, Turkiyadagi Ayo Sofiya masjidi. Bularning har biri o'z mintaqasiga xos arxitektura namunalaridir. Shuningdek, Shohi Zinda, Registon, Minorayi Kalon va Masjidi Kalon, Xazrati Imom komplekslari islom qadriyatlarining o'zbekona me'morchik asosida qurilgan namunalaridir.

2. Kiyinish. Avvalo aytish kerakki, islom dinida xristianlik, buddaviylik dinlarida bo'lgani kabi alohida diniy libos belgilanmagan. Shunga qaramay Markaziy Osiyo ulamolari o'zlarining katta oq matodan o'ralgan sallalari,

chakmon va uning ustidan bog‘langan belbog‘ bilan boshqa mintaqa vakillaridan ajralib turganlar. Boshqa hech bir joyda sallani bu kabi o‘ralishini uchratmaysiz.

3. Fiqhiy masalalar. Ma’lumki islomda to‘rt fiqhiy mazhab mavjud. Ular turli jihatlarga ko‘ra o‘zaro farqlanadilar. Ana shu sabablardan biri mintaqa bilan bog‘liq. Misol tariqasida mazhab tuzuvchilaridan Imom Shofeiy haqida quyidagi ma’lumotni keltiramiz. O‘zi Shomning G‘azza viloyatida hijriy 150 yili tavallud topgan. Iroq, Hijoz o‘lkalarining bir necha shaharlarida yashab ijod etgan. Bag‘donna olim sifatida mashhur bo‘lgan. Ahmad ibn Hanbal, Abu Savr, a‘-Za’faroniy va al-Karobisiy kabi Iroq ahlining eng yirik ulamolari undan hadis rivoyat qilishgan. Hijriy 198 yili Misrga mehmon bo‘lib boradi va o‘sha erda muqim bo‘lib qoladi. Misrdagi ijtimoiy holat, aholining mentaliteti, odatlarni ko‘rib o‘zining Iroqdagi qarashlarini o‘zgartiradi va yangi – “al-Umm” kitobini yangicha qarashlar bilan yozdi.

Yana bir misol: issiq iqlimli Arab mamlakatlaridan tarqalgan Shofeiy mazhabida tahorat olgandan so‘ng yuz-qo‘lni artmaslik sunnat hisoblanadi. Mo‘‘tadil iqlimli Markaziy Osiyo va Sibir, Tatariston kabi sovuq o‘lkalarda tarqalgan hanafiy mazhabi tahoratdan so‘ng artinmaslik makruh hisoblanadi. Bunga o‘xhash misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Ko‘p narsalarini o‘zlashtirgan bir din keyingi ikkinchi din sifatida shakllangan va ibridoiy diniy tafakkur tarixiy asrlarga kirib borganidan so‘ng bu g‘oyani tizimlashtirib, tartibga solgan tarixiy sivilizatsiyalarga ko‘chib o‘tadi. Mana shu tarixiy sivilizatsiyalar bu g‘oyani nomladi, ilohlarning tabiatlarini belgiladi, ibodatxonalar atrofida va haykallar oldida ibodat qilishni tartibga soldi. Marosimlarni nozik chekladi va ibridoiy din tarixiy sivilizatsiyalar ostida o‘zining muayyan nizomiga ega bo‘ldi. Bunday tartibga solish yangi asr sivilizatsiyaga bog‘liq bo‘lganligiga qaramay tabiiy diniy g‘oya doirasidan chiqmagan holda ibridoiy diniy tushunchalar saqlanib qoladi. Tabiatga sig‘inish davom etmoqda, tabiat kuchlariga topinish tugamagan. Tabiat, uning kuchlari va vazifalarining ma’lum tizim sifatida shakllangan o‘zgarishlar, tabiatning ibridoiy odam ongidagi mutlaq hukmron holatidan olam va uning turli kuchlarining amaliy tizimiha o‘tish hamda tabiatlar va vazifalarining tarixiy davrlarda yuzaga kelgan madaniy taraqqiyot darajasiga munosib yo‘lga qo‘yilishi qisqarmoqda.

Bu tasnif jo‘g‘rofiya fani bilan hamohang bo‘lib, dinlarni mintaqa jihatdan o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning rivoji asosida “Dinlar tarixini o‘rganishda mintaqaviy yondashuv” nomli fan sohasi yuzaga kelmoqda. Unda biror dinning muayyan mintaqaga kirib borishi, u erdagи o‘ziga xos jihatlari, boshqa dinlar bilan munosabati kabi mavzular o‘rganiladi.

Bunda mavjud bo‘lgan dinlar bir necha xil tasniflanadi:

1. Dinlarning qit‘alarda tarqalishiga ko‘ra Afrika, Osiyo, Evropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit‘alarda hamon tarqalmoqda. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit‘alarda tarqalgan. Shuningdek, ba’zi qit‘alarda ozchilikni tashkil etuvchi

ba'zi boshqa dinlar vakillari ham bo'lishi bilan birga deyarli aksar aholi bir dinga e'tiqod qiladi. Masalan, Yevropada asosan xristianlik ko'p tarqalgan, islom Amerikaga nisbatan Afrikada ko'proq tarqalgan. Osiyo qit'asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoizm dinlari aralash tarqalgan. Ba'zan bir qit'ada paydo bo'lган din boshqa qit'ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo'lsa-da, asosan Osiyo qit'asidan tashqarida tarqaldi.

2. Dirlarning jo'g'rofiy mintaqasiga ko'ra Sharq dinlari va G'arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo'linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo'g'rofiy tasnifdir. SHarq dinlariga Hinduiylik, Buddaviylik, Konfutsiylik, Sintoiylik, Daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi. G'arb dinlariga yahudiylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida Islom dinini arab yoki Sharq dini deb bo'lmaydi. U jo'g'rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylilik va xristianlik ham aslida Sharq dinlari bo'lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G'arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. G'arb tasniflaridan yana biri dunyoning bo'linishiga monand dinlarni jo'g'rofiy mintaqasiga ko'ra tasniflashdir. Bunda dinlar Yaqin Sharq dinlari, Uzoq Sharq dinlari tarzida yoki g'arbiy Afrika dinlari va Shimoliy Afrika dinlari tarzida yoki jo'g'rofiy-siyosiy omillarga ko'ra hind dinlari, Sovet Ittifoqi dinlari, Arab dunyosi dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko'ra Mesopatamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Anado'li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

5. Dirlarning mamlakatlar hududlariga ko'ra Falastin dinlari, Arabiston yarim oroli dinlari, Meksika dinlari, hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi.

Uzoq Sharq dinlari kabi ba'zi mintaqalarda dinlarini diniy mavzusiga ko'ra aniq belgilash imkonini bo'lmasligi hollarda jo'g'rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylilik, xristianlik va Islom dinlarini tawhid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bo'lmaydi. Bunday holatda muammoning echimi sifatida jo'g'rofiy tasnifga murojat qilish mumkin.

Lekin, bu tasnif ham dirlarning paydo bo'lган va tarqalgan mintaqalariga ko'ra o'rghanishda samarali uslubdir. Bu tasnif orqali dirlarning jo'g'rofiy joylashuvi ularning qaysi mintaqalarga qay tarzda va ko'lamda tarqalgani hamda kirib borayotganligi o'rghaniladi. Bunday tasnif doimo o'zgarib, yangilanib boradi. Chunki, dunyoning diniy xaritasi o'zgarib, dirlarning tarqalish harakati davom etmoqda. Masalan, xristianlik, islom va buddaviylikning davomiy harakati jarayonida dunyo aholisining diniy holati o'zgarib bormoqda. Demak, dirlarning bunday harakatini aniqlashda xalqlarning diniy joylashuviga ko'ra jo'g'rofiy tasnifga murojat qilish lozim.

Nazorat savollar:

1. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari
2. Teologiya nima?
3. Teosofiya nima?
4. Dindorlik deganda nimani tushunasiz?
5. Dinlar paydo bo‘lishiga nisbatan qanday yondoshuvlar bor?
6. Dinlar paydo bo‘lishiga ko‘ra qanday tasniflar mavjud.

Adabiyotlar:

1. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-e izd., ispr. i dop. M., 1986.
2. Taylor E. Pervobыtnaya kultura. M., 1989.
3. Religioznye traditsii mira. Buddizm, iudaizm, xristianstvo, islam. Spravochnik shkolnika. Bishkek, 1997.
4. Radugin A.A. Vvedenie v religovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. M., 1996; 2-e izdanie, ispravленное и дополненное. M., 1999.
5. Osnovy religovedeniya. Pod redaksiey I.N.Yablokova. M., 1994. Izdanie vtoroe, pererabotannoe i dopolnennoe. M., 1998.
6. Leksii po istorii religii. Uchebnoe posobie. Sankt-Peterburg, 1997.
7. Leksii po religovedeniyu. Pod redaksiey professora I.N.Yablokova. M., 1998.

2-MAVZU: Dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlar

REJA:

2.1. Sharqda dinlar tarixini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari

2.2. G‘arb mutafakkir olimlarining dinni o‘rganishga fenomenologik yondashuvi

Tayanch iboralar: din, qiyosiy dinshunoslik, diniy fenomen (ko‘rinish, hodisa)

2.1. Sharqda dinlar tarixini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Dinlar tarixi fani Islom ilmiy merosidagi asosiy ilmlardan biri bo‘lib, afsuski, unga zamonaviy musulmon tadqiqotchilari tomonidan etarlicha e’tibor qaratilmayapti. Holbuki, Islom ulamolari ilk hijriy asrlardan boshlab dinlarni o‘rganishga kirishganlar va bu borada muayyan uslubiyat yaratib, beba ho asarlar yozganlar. G‘arbda dinlar tarixi fani dinlarni fenomenologik (zohiriyl) o‘rganishdagi muhim ilmlardan biri bo‘lib, uni bexabarlik yoki atayin taassub tufayli mazmun-mohiyati va dasturiga ko‘ra G‘arb ilmilaridan deb hisoblaydilar. G‘arb tarixchi dinshunoslari dinlarni qiyosiy o‘rganish sohasida musulmon olimlari qilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni bila turib, ulardan ko‘z yumgan holda bilmaslikka oladilar».

Ilk davrlarda Abu Rayhon Beruniy, Ibn Nadim, Muhammad Shahrastoniy, Ibn Hazm Andalusiy, Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot ishlari ko‘plab Evropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini o‘rganuvchi G‘arb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanishlari uchun qulay imkon yaratdi. Dinlar, oqim va mazhablar haqidagi fan sohasining yuzaga kelishida ularga ko‘p marotaba murojaat qilingan.

Demak, dinlar tarixi fani Islomning g‘oyaviy muhitidan kelib chiqqan islomiy fan bo‘lib, uning ildizlari Islomnnig ilk davrlariga borib taqaladi. Bu fan dinlarni o‘rganish sohasidagi Islom mantiqiy yo‘nalishida erishilgan natijalarning oxirgisi hisoblanadi. Musulmon olimlarining dinlar tarixi sohasida qoldirgan buyuk ilmiy merosidan ma’lumki, dinlar tarixi fani arablarda qadimdan mavjud bo‘lgan ilm sohalaridan biridir. Bu haqida taniqli tarixchi dinshunos Shahrastoniy quyidagicha yozadi: «Bilginki, johiliyat davrida arablarda uch turdagil ilm sohasi mavjud edi: 1. Nasablar,

tarixlar va dinlar ilmi; 2. Tush ta'birlari ilmi; 3. O'lkashunoslik ilmi.»¹ Shuningdek, «Ixvon as-Saf» risolalarida keltirilishicha, ilmlar ikki guruhga bo'linadi: 1.Inson a'zolari haqidagi ilm (Anatomiya); 2. Dinshunoslik ilmi.² Ibn Nadiym yozadi: «Dinshunoslik fani h.IV-V asrlarga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.»³

G'arb olimlari o'zlarini birinchi bo'lib dinlarni fenomenologik (zohiriy) o'rghanishga e'tibor qaratgan, dinlarni o'rghanish va tarixiy, ijtimoiy, madaniy, psixologik, antropologik, adabiy va falsafiy tahlil etishda birinchi bo'lib ilmiy tamoyillarni ishlab chiqib, tadbiq etganlar, deb hisoblab, xato qiladilar. Bunday noto'g'ri xulosa din fenomenologiyasiga oid Islom ilmiy merosidan bexabarlik oqibatidir. «Aslida Islom merosi asos solgan bu dinshunoslik fani ilk islomiy fanlardan bo'lib, o'z uslubiy dasturi, xolisligi, dinning tashqi qiyofasiga mukammal tavsif berish, ma'nolarini chiqarib olib, aniq-tiniq etkazib berish borasida Evropa yo'nalihidan ustun turadi.»

Ba'zi tarixchi dinshunoslар musulmon olimlarining dinshunoslikka oid tadqiqot ishlarini baholashda bir oz xatolikka yo'l qo'yadilar: ular o'z aqidalarini himoya qiluvchi illohiyotga asoslangan va ilmiy xolislikdan chekinilgan, deb ayblaydilar. Islomiy tadqiqotlarning bir turiga berilgan bunday xulosani umumlashtirib, dinshunoslikka oid barcha islomiy merosni shunday hisoblash tug'ri bo'lmaydi. Bunda islomiy tadqiqotlarni ikki guruhga ajratish lozim:

1. Musulmon tarixchilarining boshqa din va mazhablarga qarshi kayfiyatda Islomni himoya qilishga qaratilgan tadqiqotlari. Bunda musulmon olimlar boshqa din vakillarining g'oyalalariga raddiya berish maqsadida ularning dinlarini o'rganganlar. Garchi bu yo'nalihsdag'i tadqiqotlar Islomni yet g'oyalardan himoya qilish maqsadida olib borilgan bo'lsa ham, ilmiy asoslarga ega bo'lgan o'z tamoyillariga rioya qiladi. Islomni ilmiy tarzda himoya qilish uchun boshqa dinlarni o'rghanish va ular haqida imkon qadar ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni muayyan tarzda o'quvchilarga etkazib berish zarur. Lekin, e'tirof etish lozimki, bunday tadqiqotlarda dinlar chuqur o'r ganilmagan va ulardagi mavjud haqiqatlarni o'rghanish asosiy maqsad bo'l magan. Bunday tadqiqotlarning unchalik katta zarari yo'q. Chunki, mualliflar o'z mavqe'larini asarlarinnig muqaddimasidayoq aniq belgilab qo'yganlar.

2. Dinalar tarixi borasidagi xolis ilmiy asosda qilingan islomiy tadqiqotlar. Ulardagi asosiy maqsad himoya bo'l may, dinlar ilmiy haqiqatlar sifatida va izlanishga loyiq tadqiqot mavzulari sifatida o'r ganilgan. Bunda dinlarni tasniflash, tavsiflash va mazmun-mohiyatlardan tegishli xulosalar chiqarishning ilmiy tamoyillari hamda

¹ Мұхаммад б. Абдулкарим б. Аҳмад Ал-Шаҳрастоний «Ал-Милал ва-Ниҳал», «Ал-Аҳл ал-Мисрия», 1977 й., 580-583-с.

² «Ихвон ас-Саф», 4-жилд, Байрут, 1957 й., 16-с.

³ Мұхаммад б. Яъкуб Исҳоқ Надим «Ал-Фиҳрист», Байрут, 1996, 4-с.

uslubiy dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur usulda ko‘plab asarlar yozilgan. Ammo, ularga nisbatan yuqoridagi usulda yozilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Birinchi guruhga dinlarni u yoki bu darajada o‘rgangan barcha musulmon olimlarni, ikkinchi guruhga esa, din tarixi fanining asoslarini yaratgan muayyan olimlarni kiritish mumkin. Ularning har biri haqiqiy ma’noda tarixchi dinshunos deb atashga munosibdir. Quyidagilar shular jumlasidan:

1. «Kitob al-asnom» asarining muaallifi Ibn Kalbiy;
2. «Kitob al-faq bayn al-firaq»ning muallifi Al-Bag‘dodiy;
3. «Al-fasl fi al-milal val-ahvo’ van-nihal»ning muallifi Ibn Hazm;
4. «Al-milal van-nihal»ning muallifi Shahrastoniy;
5. «Hindiston» nomi bilan mashhur «Kitob tahqiq ma lil-hind min maqula va maqbula fil-aql av mazula»ning muallifi Abu Rayhon Beruniy;
6. Fors tilida yozilgan «Kitob bayon al-adyon»ning muaalifi Abul-Maoliy Muhammad.

Mazkur asarlarning dinshunoslikka oid boshqa asarlardan farqi shundaki:

1. ular dinshunoslikda dunyo dinlari va oqimlarini o‘rganishda tadbiq etiladigan yaxshi uslubiy dastur bo‘la oladi;
2. ularda dinlar hamda boshqa falsafiy va falsafiy bo‘lmagan din va oqimlar alohida tarzda ajratilgan;
3. ularda dinlar mustaqil bir mavzu sifatida o‘rganilgan;
4. diniy tushunchalarni izohlash va tahlil etishda boshqa fan sohalariga ham murojaat qilingan.

Qur’oni karim o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan dinshunoslik borasida muhim manba hisoblanadi. Unda:

1. dinlarni ilmiy o‘rganishning muayyan me’yorlari ta’sis etilgan;
2. ularning nazariy asoslari o‘laroq ilm o‘rganish va ziyoli bo‘lishning zarurligi ta’kidlangan;
3. Islomdan oldingi dinlar haqidagi ko‘plab ma’lumotlar mavjud;
4. dinlar vahiy asosida tasniflangan va quyidagi uch turli dinlarni ajratish uchun «ahli kitob» atamasi qo‘llangan:
 - ilohiy kitobi bor dinlar;
 - ilohiy kitobga o‘xshash kitobi bor dinlar;
 - ilohiy kitobi bo‘lmagan dinlar.
5. dinning fitriyligi g‘oyasiga asoslangan dinning mukammal nazariyasi berilgan;
6. diniy faoliyatning inson hayotidan ajralmasligi ta’kidlangan;
7. insondagi fitriy (tabiiy) diniy tafakkur aql bilan uyg‘unlashtirilgan;
8. mazkur uyg‘unlik inson diniy haqiqatlarga erishishining yagona vositasi deya ta’kidlangan;

9. insonning borliq haqida chuqur tafakkur qilishi orqali tavhid aqidasiga erishishi mumkinligi ta'kidlangan;

10. tabiiy (tabiat hodisalariga sig‘iniladigan) va g‘ayri tabiiy (metafizik-tabiat orti yoki tavhidiy) dinlar o‘rtasi ajratilgan;

11. dinshunoslikdagi uslubiy asos sifatida turli din vakillari bilan muloqot orqali dinlarni o‘rganish usuli tavsiya etiladi. Bunday muloqot dastlab Islom dinini turli mintaqalarga keng yoyish harakati bilan bog‘liq edi. Biroq, bu dinlarni ilmiy o‘rganishga xizmat qiluvchi asosiy uslubiy vositaga aylandi.

Muloqot nafaqat uslubiy jihatdan, balki diniy bag‘rikenglik borasida ham muhim ahamiyatga ega. Turli din vakillarining o‘zaro hurmat va hamjihatligi dinlarning bir-biriga yaqinlashuvini ta‘minlashga zamin yaratadi. Bunday muloqot jarayonida qanday yo‘l tutish va rioya etilishi zurur bo‘lgan tamoyillar Qur’oni karim oyatlarida quyidagicha bayon qilingan:

«(Ey Muhammad,) Rabbingizning yo‘li (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da‘vat qiling! Ular bilan eng go‘zal uslubda munozara qiling. Albatta Parvardigoringizning o‘zi Uning yo‘lidan chalg‘igan kimsalarni yaxshi biluvchi va U hidoyat topganlarni ham biluvchiroqdir» (Nahl, 125-oyat).⁴

«Ayting (Ey Muhammad,): “Ey kitob ahli (yahudiylar va nasroniyilar), biz bilan sizning o‘rtamizda (ahamiyati) barobar bo‘lgan bir so‘zga kelingiz – yolg‘iz Allohgagina ibodat qilaylik!” Agar (bu taklifdan) yuz o‘girsalar (sizlar ularga): «Guvoh bo‘linglarki, biz musulmonlarmiz», - deb aytingiz» (Oli Imron, 64-oyat).⁵

Mazkur oyatlar turli din vakillari bilan muloqot jarayonida ularni qanoatlantiradigan munosib aqliy dalillarga tayanish lozimligini ko‘rsatadi. Musulmon dinshunoslari diniy muloqot uslubidan eng qulay vosita sifatida foydalanganlar. Shu asnoda ba’zi ilmiy ma’lumotlarni to‘plaganlar, anglash qiyin bo‘lgan tushunchalarni bahs-munozara orqali oydinlashtirib olganlar, to‘plangan ma’lumotlarni yozishdan oldin o‘sha din vakillaridan bevosita o‘rganganlar.

Shuningdek, hadis ilmlari ham keyingi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ular dinshunoslik uslubiyati rivojiga va o‘ziga xos mazmun-mohiyat va uslubga ega mustaqlil mukammal fan sifatida shakllanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Hadis ilmlarining dinshunoslarga qilgan birinchi xizmati shundaki, ular dinlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishishning muayyan usulini ko‘rsatib berdi. Dinshunoslар ma’lumotlarni faqat etkazish bilan cheklanib qolmay, ularni tanqidiy tahlil qilib, sharhlaganlar hamda tanqid va tarixni uyg‘unlashtirgan holda o‘z asarlarida yozib qoldirganlar. Shunga asosan bunday ilmlar bilan shug‘ullanganlar «dinshunoslар» deb ataladi. Dinshunos tarixchi ayni paytda diniy muxbirlar hamdir. Ular

⁴ Абдулазиз Мансур «КУРЬОНИ КАРИМ маънолар таржимаси», “Тошкент ислом университети”, 2001й., 19-с.

muhaddislardan farqli ravishda arablar va qadimgi xalqlarning turmush tarzi haqidagi diniy rivoyatlarni naql qilish bilan shug‘ullanadilar. Shuni e’tiborga olish lozimki, dinlar haqidagi ma’lumotlar mazmuniga ko‘ra sof diniy tarixiy va adabiy kabi turlarga ajratiladi. Bunday taqsim ular paydo bo‘lgan shart-sharoitga ko‘ra belgilanadi. Agar bunday atamani umumlashtirmasak, bu shart-sharoitlar uning yuzaga kelishidan bexabar qoldirishi mumkin. Bundan maqsad shuki, xabarlar dinshunoslar uchun din, tarix va adabiyot sohalarini uyg‘unlashtiradi. Chunki, diniy xabarlar yoki diniy fenomenni umumiylar tarzda naql qilish o‘z tarkibida mazkur uch turdagilari xabarlarni jamlaydi. Bunday taqsimot uning tarixan kelib chiqish shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Bu shart-sharoitlar biror aqida, shariat yoki axloqiy me’yorlarni o‘z ichiga olgan diniy xabarlarni ifoda etadi. Ularning manbai Muhammad (a.s.)ga yoki biror sahobaga borib taqaladi. Ularda quyidagi mavzular aks etgan:

1. Aqidaviy masalalar yoki shariat ahkomlari;
2. Islom dini va g‘ayri islomiylilik bilan bog‘liq voqealari va hodisalar;
3. fath yurishlari;
4. Islom davlatidagi ahvol;
5. Qadimgi xalqlar haqidagi xabarlarni o‘z ichiga olgan tarixiy xabarlar.

Adabiy xabarlar esa, kishilik jamiyati bilan bog‘liq til va adabiyotga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Dinshunoslar mazkur barcha turdagilari tadqiq etadi. Adabiy xabarlar shart-sharoitlar bilan ko‘p bog‘langan emas. Bu shart-sharoitlar xabarlarga ularning o‘z turli qismlarini beradi va xabarlarning diniy javhariga markazlashadi va uni tarixiy unsurni va ijtimoiy ma’nodagi adabiy unsurni bog‘lash uchun umumlashtiradi.

Bu taraqqiyotni dinlar tarixini xabarlar rivoyati rivojidagi oxirgi xalqa hisoblanuvchi oxirgi o‘xshashlik deb hisoblashimiz mumkin. «Taraqqiyotning **birinchi** bosqichi diniy xabarlar bilan boshlanadi. Binobarin, Muhammad (a.s.) davrida barcha xabarlar diniy tusda bo‘lib, ularning birinchi sohasi aqida edi. Bu diniy xabarlarning rivoyat qilish qoida va shartlari bor edi.

Taraqqiyotning **ikkinci** bosqichi jarayonida Islomga oid tarixiy xabarlar diniy xabarlar ichidan ajralib chiqdi. Diniy xabarlarda islomiyaqidaviy masalalar yoritilgan, tarixiy xabarlar Payg‘ambar, Xulafoi roshidin hayoti hamda g‘azotlarga bag‘ishlangan. Bu fath yurishlari, mamlakatlar va qadimgi xalqlar haqidagi xabarlarning yoyilishiga zamin yaratdi.

Tezlik bilan bitta din tarixini vujudga keltirish uchun **uchinchi** bosqichda diniy xabarlar bilan undan kelib chiqqan tarixiy xabarlar o‘rtasida tarkibiy tahlil amaliyoti bo‘lib o‘tgan. Bu tarix oxirgi bosqichda dinlar tarixiga aylandi. Uchinchi bosqichda mana shu muhim tarixiy yozishmalarni puxta qilib umumlashtirish mumkin. Ular muayyan bir din yoki bir qancha dinlar tarixini bo‘limlarga ajratdi. Bu bosqichdagi

tadqiqotlar shu jihatlari bilan farqlanadi. Ularning mualliflari umumiy diniy xabarni umumiy tarixiy xabarning bir qismi deb hisoblaganlar. Keyinchalik, ular o‘rgangan xalqlar haqidagi xabarlar asosan ularning dinlari haqidagi rivoyatlardan iborat edi. **To‘rtinchi** bosqichda dinlar tarixi xalqlar tarixidan mustaqil bo‘lib ajralib chiqdi va dinlar tarixiga oid tadqiqotlar yuzaga keldi.»

Demak, dinlar tarixi tarixiy tafakkur va tarixiy islomiy yozuvlarning tarixiy taraqqiyot natijasidir. Dinlar tarixini xabarlarni etkazishdagi quyidagi to‘rt taraqqiyot bosqichidan ajratish mumkin emas:

1. Islom dini haqidagi xabarlar;
2. Islom tarixiga oid xabarlar;
3. Diniy-tarixiy xabarlar;
4. Xalqlar va dinlarining umumiy tarixi;
5. Dinlar tarixi.

E’tibor berish lozimki, bu bosqichlarning har biri mustaqil ilmiy xususiyatga ega bo‘lib, har bir bosqich rivoji natijasida quyidagi mustaqil fanlar yuzaga kelgan:

birinchi bosqichda islomiy-diniy fanlar;

ikkinchi bosqichda islomiy-tarixiy fanlar;

uchinchi bosqichda musulmon bo‘lmagan xalqlar, mamlakatlar va ularning dinlari tarixi;

to‘rtinchi bosqichda dinlar tarixi xalqlar va podishohlar tarixidan ajraldi.

1. Tarixiy-tavsifiy usul.

Musulmon olimlar bundan qariyb o‘n asr muqaddam birinchilardan bo‘lib insoniyat tarixida dinlarni tarixiy-tavsifiy usulda o‘rganganlar va ko‘plab qimmatli asarlar yozib qoldirganlar. Jumladan:

- Balxiy, Abul Qosim, Abul Hasan Ash’ariy, Mas’udiy kabilarning «Maqolat» janridagi asarlari;
- Naubaxtiyning «Oro va diyonot» asari;
- Abul Ma’oliy Alaviyning «Bayon al-adyon»⁶ asari;
- Abul Abbosiyning «Dark al-bag‘iya fil-adyon val-ibadat» asari;
- Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» nomi bilan mashhur «Kitob tahqiq ma lil-hind min maqula va maqbula fil-aql av mazula» asari;
- Shahrastoniy va Bag‘dodiy kabilarning «Al-milal van-nihal» nomli asarlari.

Bunday asarlarda voqe’lik tarixan xolis yoritilgan. Buni Shahrastoniyning quyidagi so‘zi tasdiqlaydi: «Men har bir firqani yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblaridan qanday bo‘lsa shundayligicha, undagi xatolarni ajratib ko‘rsatmay

⁶ Таржима, Яхё Хишоб «Одоб ал-Кохира» журнали, 1958/май.

bayon qilishga ahd qildim».⁷

Mazkur usulning yorqin namoyandasi Beruniy o‘zining «Hindiston» asari haqida shunday yozadi: «Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o‘zlaridan o‘rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman».⁸

Abdul Jabbor Xristian dini tarixining ilk davrlarini o‘rganib, o‘zining «Tasbit daloil an-nubuvva» asarida keng yoritib berdi. Unda Pavlosning yangicha talqini, imperator Konstantinning qo‘sghan hissasi, xristianlarning oqimlarga bo‘linishi rimliklarning Injilga qilgan ta’siri, havoriylarning Iso (a.s.)dan keyingi holatlari va mavqe’lari hamda Iso (a.s.)ning osmonga ko‘tarilishi kabi mavzular tarixiy-tavsifiy usulda bayon qilingan. U quyidagi xulosaga keldi: «Rim isoviy bo‘lmadi, balki Iso dini rimplashtirildi».⁹

David Flusser u haqida shunday yozadi: «Menimcha, Xristianlikdan oldingi tarixni o‘rganishda O‘lik dengizning ahamiyati nechog‘lik katta bo‘lsa, Xristianlikning ilk davrlarini o‘rganishda yangi topilgan Abdul Jabbor asarining ahamiyati shu kabi buyukdir».¹⁰

2. Qiyos usuli.

Musulmon olimlar dirlarni har tomonlama bir-biriga qiyoslab o‘rganganlar. Bu usulda ikki yoki undan ko‘p dirlarning bir yoki ko‘p jihatlari o‘rganilib, bir-biriga taqqoslanadi. Ba’zi tadqiqotchilar bir dinning ayrim yoki barcha jihatlarini chuqur o‘rganganlar. Bu esa, dirlarni qiyosiy o‘rganuvchi keyingi tadqiqotchi uchun zina vazifasini o‘tagan. Yana bir qiyos usuli – turli din asoschilari bilan payg‘ambarlar, masalan, cherkov tasavvuridagi Iso Masih (a.s.) bilan Buddha yoki Krishna shaxsiyatini qiyoslash.

Abul Hasan Omiriy (vafoti h.381/ m.992y.) o‘zining «Kitob al-a’lom bi manoqib al-Islom» nomli asarida Islom, Yahudiylilik, Xristianlik, Sobiylilik, Zardo‘shtiylik va turli butparastlar dirlarini qiyosiy tahlil etib, bayon qilgan. U avvalo, dirlarning asosiy ruknları bo‘lmish e’tiqod, ibodat, muomalot va ta’qiqlarni, keyin esa, dirlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va erishgan madaniy yutuqlarini qiyosiy tahlil qilib bayon etgan. Omiriyning bu asari musulmon olimlarining dinshunoslik sohasida yozgan asarlari faqatgina biryoqlama raddiyalardan iborat, deb hisoblaydiganlarga qarshi inkor qilib bo‘lmas dalil bo‘ladi. U bundan qariyb ming yil ilgari o‘z asarining muqaddamasida qiyos usulining xususiyat va tamoyillari haqida shunday yozadi: «Bir narsani boshqa narsalardan afzalligini ko‘rsatib beruvchi qiyos usuli to‘g‘ri ham, noto‘g‘ri ham bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri bo‘lishi quyidagi ikki shartga bog‘liq:

Qiyoslanayotgan narsalar bir xil turda bo‘lishi lozim. Bir dindagi

⁷ Шахрастоний «Ал-милал ван-ниҳал», Миср, 1977й., 9-с.

⁸ Абу Райхон Беруний «Китоб ал-хинд», Хайдаробод, 1958й., 12-с.

⁹ Қаранг: Ҳамди Шарқовий «Жуҳду Қози Абдул Жаббор», Айн аш-шамс, 1966й., 189-с.

asosiylikni ikkinchi dindagi xususiylik bilan qiyoslash to‘g‘ri emas;

Dinlarning biror bir firqasi aqidalariga qarab o‘scha dinka umumiy ravishda baho bermaslik, balki barcha firqalarning qarashlarini e’tiborga olish lozim».¹¹

3. Tanqidiy-tahliliy usul.

Musulmon olimlari tomonidan Xristianlikdagi «muqaddas uchlik», xoch, qiyomat, Hinduiylikdagi tanosux (ruhning ko‘chib o‘tishi) kabi turli xil diniy aqidaviy masalalar tanqidiy usulda o‘rganilgan.

Ibn Hazm Andalusiy «Fasl fil-milal val-ahva van-nihal» nomli asarining kattagina qismida Tavrot matnlarini tanqidiy-tahliliy bayon qilgan. U Tavrotning besh qismini tarixiy, mantiqiy va boshqa jihatlardan tanqidiy-tahliliy usulda o‘rganib quyidagicha xulosa beradi: «Bu (besh qism) Muso (a.s.)dan bir necha asr keyin yozilgan soxta tarixdir».¹²

Undan yuz yil keyin yashagan yahudiy olim Ibrohim ibn Azro al-G‘arnotiy uning xulosasini tasdiqlagan. Olti asr o‘tgach, yahudiy faylasuf Barux Sibinuzo (Espinoza) Ibn Hazm xulosasini so‘zma-so‘z takrorlagan.

4. Muloqot usuli.

Bu usulning bir necha turlari mavjud:

◆ **Bahs-munozara usuli.** Uning islom olamida ancha ilgari vujudga kelishiga islom dining bag‘rikengligi, o‘scha davrdagi muhit va insonlarning ilmga chanqoqligi, turli din vakillarining bahs-munozara majlislari sabab bo‘lgan. Bunday yig‘ilishlarda tomonlar o‘z aqidalarining haqqoniyligini isbotlashga va ularga bir-birlarini ishontirishga harakat qilishar edi.¹³

◆ **Yozma usul.** Musulmon olimlar maktub va kitoblar orqali boshqa din vakillari bilan o‘zaro muloqot o‘rnatganlar. Bunday usulga quyidagi maktublar misol bo‘la oladi:

- ▶ Rohibi Dir Klunining maktubiga Qozi Abdul Validning javob maktubi;
- ▶ Abdul Masih va Hoshimiyning o‘zaro maktub almashuvi;
- ▶ Faylasuf Kindiy va mutakallim Abu Iso Varroq hamda Abu Zakariyoning raddiyalari.

Shunday qilib musulmon olimlar birinchilardan bo‘lib turli usullar asosida dinlarni o‘rganganlar. Ayniqsa, Hinduviylik, Yahudiylilik va Xristianlik dinlarini chuqur tadqiq etishga katta e’tibor qaratganlar. To‘g‘ri, ular dinlarni hozirgidek alohida sohalarga bo‘lib tahlil qilmagan bo‘lsalar ham, bir paytning o‘zida bir qancha ilm sohalari bilan shug‘ullanganlar va bu ularga dinlarni bir butun shaklda tasavvur qilishga, xolis-ilmiy va asosli xulosalarga kelishlariga sabab bo‘lgan.

Beruniyning dinshunoslikka oid asarlari.

Beruniyning yoshligidanok ilm-fanga kiziqishi, kobiliyati kuchli bo‘lgan. Lekin uning boshlanrich ta’limni kimdan va qayerda olgani haqida mufassal

¹¹ Абул Ҳасан Омирий «Китоб ал-аълом би маноқиб ал-Ислом», Ар-Риёд, санасиз, 82-с.

¹³ «Ислом фалсафаси» 1-халкаро конференцияси, 1996й.

ma'lumotlarga ega emasmiz. O'sha vaqtida Xorazmda fanning turli sohalarida shuhrat qozongan ko'plab olimlar yashagan. Beruniy, shubhasiz, shulardan o'qib, ta'lim olgan bo'lishi kerak U fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullandi. O'zining ona tili bo'lmish xorazm tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: sur-diy, fors⁷, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini egalladi. Keyinchalik olimning Hindistonda bir qancha vaqt hayot kechirishi unga hind madaniyati bilan chuqur tanishish va sanskrit tilini organib olish imkonini berdi. Qadimgi yunon klassik ilmi bilan tanishdi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix va etnografiya, falsafa va filologiya sohalarini chuqur egallagan yirik olim bo'lib etishdi. Beruniy shoир va adabiyotshunos ham edi. U o'z zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oladi. Abu Nasr ibn Iroq astronomiya, geometriya va matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. U Beruniyni Evklid geometriyasi va Ptolemeyning astronomik ta'limoti bilan tanishtiradi. Ustoz bilan shogird o'rtasidagi do'stlik uzoq vaqt largacha davom etadi. Beruniy ustozining nomini hamma vaqt zo'r hurmat bilan tilga oladi.

1030 yili esa «Xindiston» nomi bilan mashhur bo'lgan eng yirik asari «Tahqiq mo li-l-Hind min ma'qula maqbula fi-l-aql av marzu-la» («Xindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash») yuzaga keladi²⁰. Bu shoh asarga G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, xozirgi hind olimlari ham juda yuksak baqo bergenlar. Akademik V. R. Rozen: «Sharq, va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyotida bunga teng keladigan asar yo'q»²¹, — deb yozgan edi. Hindiston haqida qadimgi va o'rta asrda yashagan juda ko'p olim va sayyoohlar tomonidan turli-tuman xotirot va kitoblar yozilgan. Lekin bularning hech biri Beruniyning «Hindiston» asari bilan tenglasha olmaydi.

2.1. G'arb dinshunosligining o'ziga xos jihatlari.

Dinshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan, rivojlangan va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. G'arb mamlakatlarida dinshunoslik fani ko'pincha nemis tilidagi «**RELIGIONSWISSENSCHAFT**» atamasi keng qo'llaniladi. Garchi ingliz tilidagi «**HISTORY OF RELIGIONS**» atamasi ham ishlatilsada, mazkur nemis tilidagi «**RELIGIONSWISSENSCHAFT**» atamasi afzal hisoblanib, ko'proq ishlatiladi. Mazkur ikki atamadagi asosiy tushuncha yuzasidan G'arbda keng tarqalgan «**COMPARATIVE RELIGION**» (qiyosiy dinshunoslik), shuningdek, «**PHENOMENOLOGY OF RELIGIONS**» (din fenomenologiya) kabi atamalar ham qo'llaniladi. Bu fan **birinchidan**, dinlarning tarixdagi harakati, ularning xolis ilmiy tavslifi xususidagi tushunchalarning farqlari atrofida, **ikkinchidan**, diniy ko'rinishning barcha tarkibiy unsurlariga va inson hayotidagi diniy foliyatning barcha tarkibiy omillariga e'tibor bergan holda dinlarning tashqi qiyofasini qiyoslash asosida izlanish olib boradi. Bunday dinshunoslik biryoqlama bo'lib, mazkur faoliyatlarning muayyan jihatlarigagina e'tibor qaratadi. Masalan, tarixchilar dinlarning tarixiy unsurlarini, psixologlar ruhiy-psixologik jihatlarini, sotsiologlar ijtimoiy

jihatlarini o‘rganadi. Diniy fenomen (ko‘rinish, hodisa)lardan birining bunday ilmiy taassubi natijasida masalaning mazmun-mohiyati va uslubiy asoslari jihatidan noqis echim yuzaga kelgan. Eng muhimi, dinlarning tashqi qiyofasi va inson hayotidagi diniy faoliyat ularning orasini ajratishga va tanqid qilishga qarshilik ko‘rsatadi. Garchi mazkur yo‘nalishlar o‘z faoliyati sohasida muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa ham, ularning hech biri dinning tashqarisidan turib uning to‘liq qiyofasini va asl mohiyatini ochib bera olmaydi. Diniy fenomenni tushunishga xayrixoh bo‘lganlar bu yo‘nalishlarda o‘z tadqiqot sohasini belgilab olishi lozim edi. Shundan kelib chiqib dinlar tarixi fanining maqsadi diniy fenomen bilan bog‘liq fanlarni umumlashtirish, turli dinshunoslik yo‘nalishlari erishgan ilmiy yutuqlardan foydalanish va nihoyat diniy fenomen ilmini hosil qilish uchun bir qancha yo‘nalishlarni muvofiqlashtirishga intilish bo‘ladi.

Shuningdek, dinlarni o‘rganishdagi yondashuvlarni bob va bo‘limlarga ajratib, Sharq va G‘arbdagi dinning ijtimoiy hayotidagi o‘rnini o‘rganishda mavjud ko‘plab sof diniy va ilmiy har xil yondashuvlarni turli xorijiy va mahalliy manba hamda adabiyotlardan foydalangan holda qiyosiy tahlil etishga harakat qildik. Bular dinlar tarixi, jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini yanada batafsilroq o‘rganishga yordam beradi. Kishilik jamiyati uchun ular natijasida to‘plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma’lumotlar katta ahamiyatga ega.

DIN TARIXI dinning umumiyligi va alohida denomenatsiyalarida uning yuzaga kelish va rivojlanish tarixini tadqiq etadi. U mafkura, dogmatika, marosimlar, diniy tashkilotlar kabi din bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy hodisalar majmuini qamraydi. Dunyo dinlari mafkurachilarini din tarixini inkor qiladilar, din insoniyatga xudo tomonidan mukammal shaklda berilgan ilohiy inoyat bo‘lib, rivojlanishga muhtoj emas, deb hisoblaydilar.

DIN FALSAFASI qadim zamonalardan boshlab falsafiy tafakkurda din masalasi faylasuflarning diqqatini o‘ziga jalb etib kelgan. Dinga turlichayta’rif va tavsiflar berilgan. Falsafiy dunyoqarashda dinni g‘oyalari tizimi sifatida tahlil etuvchi dinshunoslikning din falsafasi bo‘limi shakllangan. U dinni falsafiy yo‘nalish va oqimlar namoyandalarining umumiyligi falsafiy konsepsiyalari asosida tushuntirish va unga shu tarzda baho berishdir. Masalan, marksistik din falsafasi:

➤ dinning tabiatini va mohiyati haqidagi umumiyligi nazariy echimlarni tavsiya qiladi;

➤ dinni ijtimoiy ongning ixtisoslashgan shakli sifatida uning gnoseologik (irfoniy, dunyoni anglash) tahlilini amalga oshiradi;

➤ dinning gnoseologik ildizlarini, uning shakllanishi va tugullanishining shartlari hamda ehtimollarini aniqlaydi. Marksizm nuqtai nazaridan din muayyan ijtimoiy tizimlarning tarixan emirilishi va inqirozini o‘zida aks ettiradi.

Idealistik din falsafasi ilohiyot bilan yaqindan uyg‘unlashadi,

xudoning mavjudligi va ruhning o'lmasligini bosh masala deb e'lon qiladi.

DIN FENOMENOLOGIYASI dinshunoslikning XX asr boshlarida Evropada yuzaga kelgan bir sohasi bo'lib, zamonaviy G'arb falsafasida fenomenologiya sof tafakkur va inson mavjudligining tarkibini tahlil etish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Din fenomenologiyasining ko'pchilik namoyandalari diniy tafakkur ni tahlil etishda E.Gusserl (1859-1938) uslubini qo'llashga harakat qiladilar. Ularning ilmiy izlanishlarining tarkibi diniy tafakkurni dinning aniq tarixiy sub'ekti bo'lmish dindorlardan ayri holda o'rganish va diniy tafakkurni asl tarkib va mohiyatlar uyg'unligidan xulosa qilishdir. Fenomenologiya fenomenlar (tashqi qiyofa, ko'rinish) haqidagi va ular uchun fan, ya'ni parapsixologiyadir. Din fenomenologiyasining ruhi – bu ishonch, din va ma'rifat ziyyosi.

DIN ANTROPOLOGIYASI- XIX asrning 70-yillarida dinshunoslikdagi mifologik yo'nalishning inqirozi kuzatildi. U o'zining barcha diniy e'tiqodlar, folklor, xalq urf-odatlarini qadimiy astral mifologiya asosida tushuntirib berishga befoyda urinislari bilan boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Uning o'rnini antropologik maktab egalladi. 40-yillardayooq Lyudvig Feyerbax dinding insoniy (antropologik) asosini topishga uringan edi («Сущностъ религии», 1845). Feyerbaxning fikriga ko'ra, dinding asosi inson qiziqishlari va ehtiyojlarining bir ko'rinishidir. U: «Xudolar - inson orzularining amalga oshgan, umumiylashgan shakli», deb yozgan edi.

Antropologik maktab namoyandalari dinding kelib chiqish manbai insondir degan fikrni ilgari suradilar. Bu maktabning uslubiy asosi pozitivizm va evolyusionizm bo'lib, bu maktabni ko'pincha «evolyusionistik» nomi bilan yuritiladi. Antropologik maktab tarafdarlarining faktologik bazasi bo'lib o'sha davrgacha to'plangan ulkan etnografik material xizmat qildi. Mazkur asosda E. Taylor, G. Spenser, Dj. Lyobbok va boshqa antropolog-evolyusionistlar dinding qanday paydo bo'lgani va taraqqiy topganini ilgari amalga oshirilganidan mukammalroq tarzda tasvirlab berishga harakat qildilar. Antropologik yo'nalishdagi tadqiqotchilarning konsepsiyalari turlicha bo'lib, bir-biriga o'xshash edi. Animistik nazariya deb ataladigan Eduard Tayloring (1832-1917) nazariyasi ancha mashhur bo'lib ketdi. Tayloring fikricha («Pervobitnaya kultura», 1871), «dinding boshlang'ich shakli» bu ruh, arvoj va shu kabilarga e'tiqod qilish bo'lgan. Bunday e'tiqod ibridoiy odamni uyqu, xushdan ketish, ko'zga har xil narsalarning ko'rinishi, kasalliklar va nihoyat o'lim kabi u va uning atrofidagi kishilarda yuz berayotgan muayyan holatlar qiziqtirganligi sababli kelib chiqqan. Bunday hodisalarni to'g'ri talqin qilishga qodir bo'limgan «yovvoyi faylasuf» inson tanasida o'tiradigan, uni vaqtinchalik yoki butunlay tashlab keta oladigan kichkinagina jufti - ruh haqidagi tasavvurlarga borgan. Xuddi mana shu e'tiqoddan asta-sekin boshqa, yanada murakkabroq tasavvurlar: hayvonlar, o'simliklar, jonsiz narsalar, o'lganlar ruhi va ularning taqdiri, ruhning boshqa tanalarga ko'chib o'tishi yoki aynan ruhlarning o'limdan keyingi hayoti haqidagi qarashlar kelib chiqqan. Ruhlar asta-sekin arvohlarga, keyin esa xudolarga va nihoyat yagona qudratli xudoga aylanadi deb tasavvur qilganlar. Shunday qilib, ibridoiy

animizmdan (lotincha «anima», «animus» - ruh, arvo) tadrijiy evolyusiya natijasida barcha dinning turli shakllari taraqqiy topgan. Ibtidoiy animistlar vafot etgan qarindosh urug‘larining ruhlarini abadiy, o‘lmas deb ularni e’zozlaganlar. «Inson vafotidan so‘ng qaerda yashaydi, degan savolga turli xalqlar turlicha javob berishgan. Ba’zilari ajdodlarning ruhlari tiriklar yashaydigan joyda yashashadi, biroq ularni faqat tushda ko‘rish va gaplashish mumkin deb o‘ylaganlar. Boshqalari o‘lganlarning ruhlari chaqaloqning tanasiga o‘tadi, deb hisoblaganlar. Uchinchilari esa, o‘lganlarning ruhlari maxsus joylar - «o‘liklar mamlakati»da yashaydi, bu mamlakat er ostida joylashgan deb hisoblaganlar. Jon - konkret, uni ushlab sezsa bo‘ladi, u ko‘rish va hatto sezish mumkin bo‘lgan muayyan narsa deb hisoblangan. Chunonchi, qutbni tekshirgan yirik olim F. Nansenning aytishiga qaraganda, eskimoslar jonni nafas olish bilan bog‘liq, deb ishonganlar. Shuning uchun ham odam kasal bo‘lganda shomonlar kasalga dam solib, uning jonini davolashga yoki unga yangi jon solishga uringanlar. Animistik e’tiqodga ko‘ra, jon bir qadar mustaqil, bir qancha hollarda esa tanaga bog‘liq emas. Uni yo‘qtib qo‘yish mumkin, ba’zan uni shomonlar o‘g‘irlab ketishadi. Odam uzoq joyga sayohatga ketganida uning joni uyda qoladi. Odamzot o‘z vatanini qo‘msashining sababi ham ana shunda. Animizmga ko‘ra, tabiatdagi har bir muhimroq hodisaning o‘z ruhi bor. Masalan, ayrim daraxtlarning ruhi o‘rniga avval ayrim o‘rmonlar va butazorlarning ruhlari mavjud, keyinchalik esa umuman o‘rmon ruhi bor, deb hisoblaganlar. Bunday aqidalar shunday xulosaga olib kelgan: agar ruhlar kishilarga o‘xshab ov qilsa, o‘ynasa kulsa, ularning ovqatlanishi ham tayin. Demak, vafot etgan kishining tirik arvoi xususida g‘amxo‘rlik qilish kerak. Ularga oziq-ovqat va boshqa hadyalar atab turish lozim. O‘rta Osiyoda marhumning jonini arvo deb atashgan. Arvohning bir xususiyati shundaki, u o‘likni tashlab uzoqqa ketmaydi, lekin u qabrdan tashqariga chiqadi, deb o‘ylashgan. Shuning uchun ham qadimgi zamonlarda arvo uchun go‘rni teshib qo‘yanlar yoki mozor oldida arvo uyi qurbanlar. Arvo hamma joyda - daraxtlarda, ariq va daryolarda, xovuz va xarobalarda yuradi. Shunga ko‘ra, kishilar o‘z boshlariga biron-bir mushkul ish tushsa, o‘scha erlarga borib sig‘inganlar, pul tashlaganlar, arvohlardan madad so‘raganlar. Shomonizmda shomon o‘z diniy amallarini ruhlar orqali amalga oshiradi. Ularning e’tiqodiga ko‘ra, shomonga ilohiy qudratni arvohlar baxsh etadi. Shomonlar arvohlar yordamida kasallarni davolaydi. Ular bemorning ruhoniyatiga ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan turli usullar yordamida gipnoz qiladilar.

Shomonlikni qabul qilishni xohlovchilar g‘orga borib o‘tirganlar. Tunda ruh kelib unga o‘z nayzasini sanchadi va uni sehrgar qilib qo‘yadi, deb ishonganlar. Shomonlar orasida ruhlar bilan gaplashadigan alohida kishilar ham bo‘lgan. Dinning bunday turi avstraliyaliklarda hozirgi davrda ham mavjud. Shomonlar yomg‘irlar yog‘dirganlar, ammo hamma joyda ham emas. Volga bo‘yi xalqlarida ham shomonizmning asoratlari qisman saqlanib qolgan. Mujan yoki mujadish nomi bilan ma’lum kishilar g‘ayritabiyy qobiliyatga ega bo‘lib, fol ochish bilan shug‘ullanganlar. Mujanlar, go‘yoki, yomon ruhlar bilan aloqa o‘rnatganlar, kasallik yuborishga yoki uni davolashga qodir bo‘lganlar. Odamlar ulardan juda qo‘rqanlar. Udmurtlarda bu vazifani tuno - tush ko‘rib, fol ochuvchi kishilar

bajarganlar. Odamlar ulardan ko‘pincha, jumladan jretslarni tayinlashda maslahat olganlar. Tuno xudolar va ruhlar bilan aloqa o‘rnatib, ko‘pincha ekstaz holatida, ya’ni shomonlik yo‘li bilan kelajak haqidagi xabarlarni etkazgan.

70-80-yillarda Taylorning animistik nazariyasi turli mamlakatlarning dinshunoslari orasida tez orada shuhrat qozondi. U dinshunoslikda ilgariga qarab tashlangan yirik qadamlardan deb qaraldi. Animistik nazariya naturistik nazariyadan ustun bo‘lib chiqdi. Keng etnografik material asosiga qurilib, uni sistemalashtirgan, evolyusiya g‘oyalari ruhidagi bu animistik teoriya betartib diniy aqida va urf-odatlar, shuningdek xristianlik kabi murakkab dirlarni tushunishga, ularni eng oddiy elementdan chiqarishga imkon bergandek bo‘ldi. Shuningdek animistik nazariya o‘sha davrdagi fanni ilohiyot tizimlarini tanqid qilishi uchun qurol bilan ta’mindadi.

2.2. Din ijtimoiy hodisa sifatida

DIN IJTIMOIY HODISA-Dinni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganadigan dinshunoslikning bu sohasi – din sotsiologiyasi deb ataladi. U dinshunoslikning alohida sohasi sifatida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga keldi. Mazkur sotsiologiyaning ayrim qonunlarini sotsiologlardan Ogyust Kont (1798-1857) va Gerbert Spenser (1820-1903) o‘z asarlarida ishlab chiqdilar. SHunga qaramay, uning asoschilari Maks Veber va Emil Dyurkheyem (1858-1917) hisoblanadilar.

DIN SOTSILOGIYASI muayyan jamiyatda diniy ta’limotning tarqalishi, uning kishilar ongiga ta’sir darajasi, ijtimoiy va madaniyma’naviy hayotdagи ahamiyatini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar xulosalariga murojaat qilinadi. Keyingi ikki asr davomida dinni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganuvchi dinshunoslikning din sotsiologiyasi fani ham shakllandi. Unda dinning ijtimoiy shart-sharoitlari, yuzaga kelish qonuniyatlari, rivojlanishi va vazifalari, elementlari va tarkibi, jamiyatdagи o‘rni va roli, ahamiyati o‘rganiladi. Sotsiologik nazariya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- dining mohiyatini ochib beruvchi asosiy holatlar;
- diniy tafakkur, marosimlar, munosabatlar, tashkilotlar kabi dinning turli ko‘rinishlari haqidagi bilimlar;
- din sohasidagi aniq tadqiqotlar uslubiyati.

Dinni faqat ruhiy hodisa deb, diniy tuyg‘ular, tushunchalar, tasavvurlar barchasi insonning ichidangina kelib chiqadigan narsa deb qarasak, biz xato qilgan bo‘lamiz. Inson o‘zini o‘rab turgan muhit, jamiyat bilan bevosita bog‘liqdir. Din ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun ham u jamiyat hayotida jiddiy rol o‘ynamasligi mumkin emas edi. Diniy ideologiya har doim ham inson axloqi va jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmaydi. Sinflar, ijtimoiy guruhlar, shu jumladan alohida shaxslar o‘zlarini mavjud real vaziyat, muayyan shart-sharoit talab qilganidek tutadilar. Agarda real sinfiy, gruppaviy va shaxsiy manfaatlar mavjud ideologiyaga zid bo‘lsa, bu ideologiya amalda qo‘llanma bo‘lishdan to‘xtaydi va faqatgina aqidalarda hamda amaliyotga tatbiq etilmaydigan hikmatli

so‘zlar va nasihatlardagina qoladi. Juda ko‘p hollarda alohida shaxslar va ijtimoiy guruuhlar bir diniy-ideologik ko‘rsatmani zo‘r berib targ‘ib qilgan holda, o‘zлari bu ko‘rsatmaga butunlay zid bo‘lgan prinsiplarga suyanib yashaydilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, din ijtimoiy hayotda hal qiluvchi, asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani bajaradi. E. Dyurkheyminning fikricha, din ijtimoiy hayotning ramziy aks etishidir. U insoniyat tarixining ilk davridan boshlab inson bilan birga bo‘lib keldi va insoniyat yer yuzida mavjud ekan, din ham doimiy mavjuddir. Din jamiyat hayotida muhim rol o‘ynagani uchun ham jamiyat taraqqiyoti dinga qarshi kurashish bilan emas, balki dinni o‘rganish, u bilan «kelishish» yo‘li bilangina amalga oshishi mumkin. Din bizning o‘tmishimizdir. O‘tmishsiz kelajak yo‘q. Shuning uchun ham dinni o‘rganmay turib kelajakda namunaviy jamiyat qurish mumkin bo‘lmaydi. Ijtimoiy fanlar qatorida dinni alohida soha sifatida o‘rganish lozim.

Nazorat savollar:

1. G‘arb dinshunosligining o‘ziga xosligi nimada?
2. Din falsafasining asosiy g‘oyasi nima?
3. Feyerbax dinshunoslikning qaysi maktabiga asos soldi?
4. Din antropologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Eduard Taylor ilk diniy tasavvurlarni qanday baholaydi?
6. Din sotsiologiyasi sohasini asoschilari kimlar?
7. Din sotsiologiyasi nimani o‘rganadi?
8. Din fenomenologiyasi qanday yondashuvni bildiradi?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-e izd., ispr. i dop. M., 1986.
2. Taylor E. Pervobыtnaya kultura. M., 1989.
3. Religiozные traditsii mira. Buddizm, iudaizm, xristianstvo, islam. Spravochnik shkolnika. Bishkek, 1997.
4. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. M., 1996; 2-e izdanie, ispravленное и дополненное. M., 1999.
5. Osnovы religiovedeniya. Pod redaksiey I.N.Yablokova. M., 1994. Izdanie vtoroe, pererabotannoe i dopolnennoe. M., 1998.
6. Leksii po istorii religii. Uchebnoe posobie. Sankt-Peterburg, 1997.
7. Leksii po religiovedeniyu. Pod redaksiey professora I.N.Yablokova. M., 1998.
8. Yablokov I.N. Religiya: sushnost i yavleniya. M., 1982.
9. Ibn Hazm Andalusiy «Fasl fil-milal val-ahva van-nihal», Qohira, Ibn Hazm Andalusiy «Fasl fil-milal val-ahva van-nihal», Qohira.
10. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
11. Readon B. Bag‘rikenglik: tinchlik sari olg‘a qadam. T., 2002.
12. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2001.

13. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. T., 1968.
14. Beruniy, Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. T., 1973.
15. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. II tom. T., 1968.

3-MAVZU: O‘zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy hayotning turli jahbalariga tadbiq etish jarayonlari

REJA:

- 3.1.Diniy qadriyatlар.
- 3.2.Islomiy qadriyatlarning ijtimoiy hayot sohalaridagi tadbiqi.

Tayanch iboralar: qadriyatlар, islomiy qadriyatlар,

3 .1.Diniy qadriyatlar.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlар sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlар ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy – ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Diniy va dunyoviy qadriyatlarda bag‘rikenglik g‘oyasiga tayangan O‘zbekistonda xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan turli millat vakillari hamjihat bo‘lib, bir zaminda yashab, mehnat qilib kelayotgan bir vaqtda “dunyoviylik” tamoyilini to‘g‘ri anglash, jamiyat, davlat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash masalasi nihoyatda dolzarb.

Ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak, haqiqatdan ham din va e’tiqod masalalari inson ma’naviyatining uzviy qismi hisoblanadi. Ularning mazmun-mohiyati haqida chuqur va asoslangan bilimlarga ega bo‘lish hayotiy-amaliy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Xususan, bu borada vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglik masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va dolzarb masala bo‘lib kelgan. Chunki, ushbu tushunchalarning negizida shaxsning huquq va erkinligi, demokratik prinsiplar, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi muhim ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, ularning sog‘lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida belgilanganidek vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan

konstitutsiyaviy huquqidir.

Darhaqiqat, vijdon erkinligi – har bir fuqaroning dinga e’tiqod qilishi yoki qilmaslik, diniy rasm-rusum va marosimlarda ishtirok etish yoki etmaslik kabi dinga nisbatan o‘z munosabatini mustaqil aniqlaydigan shaxsiy huquqidir. Har bir fuqaro o‘z ixtiyori bilan diniy ta’lim olish huquqiga ega. Buning uchun fuqarolarni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘ymaydi. Davlatimiz tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon va e’tiqod erkinligi huquqidan foydalanish qat’iy kafolatlangan.

Diniy bag‘rikenglik esa – xilma-xil diniy e’tiqodda bo‘lgan kishilarning oljanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida xizmat qilishini anglatadigan tushunchadir. Bugungi kunda mazkur g‘oya jamiyatning barcha a’zolari hamkorligini nazarda tutuvchi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunga kelib respublikamizda diniy tashkilotlarning soni 1990 yilga nisbatan 10 baravarga oshib, hozirda turli diniy yo‘nalishlariga oid 16 ta har xil diniy konfessiyaga mansub, adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tgan 2239 ta diniy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning sirasiga islom, pravoslav, yahudiylik, buddizm, shuningdek Rim-katolik va Evangel lyuteranlar, Evangel xristian-baptistlar, To‘liq injil xristianlari, Novoapostol cherkovi, Xristian-presviterian cherkovi, Iegovo shohidlari, Krishnaitlar, Baxoilar va boshqalar kiradi.

Ularga o‘z diniy marosimlarini o‘tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda va boshqa normativ-huquqiy hujjalarda mustahkamlab qo‘ylgan.

Jumladan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun bilan dinning yuksak madaniyat va ma’naviyat vositasi ekanligi, beqiyos axloqiy-tarbiyaviy qudrati, shuningdek, insonlarni kamtarinlik, kamsuqumlik, halollik va poklikka undovchi qadriyatları milliy qadriyatlar qatorida qonuniy tan olindi. Diniy qadriyatlarning millatlararo mojarolar, qonli to‘qnashuvlarni qattiq qoralashi, turli din va millatdagi odamlarni o‘zaro birodar, ahil bo‘lib, tinch-totuv hayot kechirishga da’vat etishi kabi omillari hisobga olinib, mamlakatimizda turli din vakillarining hech qanday to‘sqliarsiz o‘z dinlariga e’tiqod qilishlari uchun barcha sharoit va qulayliklar yaratib berildi.

Misol tariqasida aytab o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda dinga e’tiqod qiluvchilar barcha diniy bayramlarni erkin nishonlashmoqdalar. Yildan yilga musulmonlarning Ramazon va Qurbon hayitlari, xristianlarning Pasxa va Rojdestvo, yahudiylarning Pasxa, Purim va Xanuka bayramlari keng ko‘lamda nishonlanmoqda.

Bundan tashqari har yili O‘zbekiston Respublikasi hukumatining har tomonlama ko‘magi orqali musulmonlar Xaj va Umra amallarini bajarish uchun Saudiya Arabistoniga, xristianlarni Rossiya, Gretsiyaga, yahudiylar esa Isroilga ziyoratga yuborilmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan har bir konfessiya bilan o‘zaro aloqalarni amalga oshirish quyidagi tamoyillariga asoslanadi: diniy

tuyg‘ularni hurmat qilish; fuqarolarning shaxsiy ehtiyoji sifatida diniy e’tiqodni e’tirof etish;dindan g‘ayriqonuniy maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik; fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilishi yoki hech bir dingan e’tiqod qilmasligidan qat’i nazar teng huquqlilagini ta’minlash va ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

Mazkur tamoyillar asosida esa davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatalishiga ko‘maklashadi, shuningdek davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

3.2. Islomiy qadriyatlarning ijtimoiy hayot sohalaridagi tadbiqi.

Islom dini jaxon dinlaridan biri bo‘lib, bu dinga e’tiqod qiluvchilar – musulmonlar soni 1,62 mln kishidir. Ularning 2/3 qismi Osiyoda, 30% i Afrikada yashaydi. Bugungi kunda 172 davlatda musulmon jamoalari mavjud bo‘lib, 40 dan ortiq davlatda musulmonlar axoli ko‘pchiligin tashkil etadi. Indoneziyada 210 mln, Pokistonda 150 mln, Hindistonda 140 mln, Bangladeshda 110 mln, Nigeriyada 80 mln, Eron, Turkiya va Misrda 65 mlndan, O‘zbekiston, Marokash, Jazoirda 30 mln.dan, Saudiya Arabistonida 17 mln. musulmonlar bor.

Ba’zi davlatlarda (Eron, Pokiston, Mavritaniya, Kamar orollari) mamlakatlarining nomiga Islom so‘zi qo‘shib aytildi. Aholining deyarli barchasi musulmon bo‘lgan 28 mamlakatda Islom rasman davlat dini sifatida tan olingan.

Musulmonlardan 1,424 mlni sunniylar bo‘lib (88%), 195,5 mlni (12%) shialardir. Islom diniga e’tikod qiluvchi kishi “musulmon ” (muslim arabcha islomni kabul kilgan, itoatli, kupligi – muslimun) deb nomlanadi. Forslar musalmon, o‘zbeklar musulmon, qirg‘iz va qozoqlar musurmon, Rossiya va Ukrainada basurman deb talaffuz etishadi. Evropada musulmonlarni magometane (Muxammad tarafdarlari) deb atashadi. Bugungi kunda dunyoda eng keng tarqalgani musulmon iborasidir.

Qur’oni karimning tarkibiy bo‘linishi

Qur’oni karim asosan oyat (ma’nosи ar. “nishon”, “dalil” “xujjat”) va sura (ma’nosи ar. “qo‘rg‘on” “manzil”)lardan iborat. Qur’oni karim quyidagi tarkibiy bo‘linishga ega:

1. Sura 114 ta.
2. Oyat 6236 ta.
3. So‘z. 77934 ta.
4. Harf. 323 671 ta.
5. Juz. Qur’onning 30/1 bo‘lagi

Qur’on mavzusi va moxiyati insonlar tafakkurida ko‘phudolikka barxam berish, yakkahudolikni targib qilish va islom dini axkomlarini qaror toptirishdir. Qur’onda insoniyatning etnik bo‘linishi, ijtimoiy tabaqalanishi, ayirmachilik, millatchilik inqor etiladi. Alloh nazdida barcha tengdir. Diniy e’tiqodda mustaxkam turish, yaxshilik, ezbilik, savob ishlar, mexr-shafqat, miskin va muxtojlarga yordam berish, insonparvarlikni ulug‘lash barcha iloxiy kitoblar kabi buning mazmun-moxiyatini belgilaydi. Unda tekinxo‘rlik, birovlar xaqini eyish, boshqalar xisobiga yashash, poraxo‘rlik, ishyoqmaslik, jabr-zulm, o‘grilik, qotillik,

dilozorlik, fitnachilik, kibru xavo qoralaiadi. Barcha xalqlar bir ota-onaning avlodi ekani eslatiladi. Allomalar Qur'on oyatlarini Allohning amrlari va naxyilar (ya'ni mo'min bandalarga buyurganlari va qilmanglar deb qaytarganlari), va'da va va'idlari (ya'ni bandalarga dunyo va oxiratda savob amallari uchun yaxshilik berurman deya qilgan va'dalari-yu, dunyo xamda oxiratda gunox ishlari uchun azoblayman deb qo'rqtishlari), avval o'tgan ummatlar, paygambarlarning tarixlari, xalol-xarom narsalar, banda qilishi kerak bo'lgan duolar kabi qismlarga bo'lishadi. Qur'on fiqxiy xukmlarni qabul qilishda asosiy va birinchi manba hisoblanadi. Undan keyin esa sunna, ijmo, qiyos turadi. Qur'onda kelgan xukm shariatda farz sifatida qabul qilinadi.

Tafsir ilmi.

Islomiy ilmlar Allohning kalomi - Qur'oni karimga asoslangan va u bilan bevosita bog'liq ilmlardir. Shulardan eng muhimi tafsir ilmi hisoblanadi. Yaxshi ma'lumki, Qur'oni karimni o'qib, uni mazmun-mohiyatini to'la darajada tushunish har qanday kishiga bir muncha og'irlik va murakkablik tug'diradi. Buning sababi shuki, muqaddas Kitob suralari va oyatlari zamiridagi ilohiy mazmunni anglash katta bilim talab qilish bilan bir qatorda, bu Kitob uslub va til nuqtai nazaridan ham g'oyatda murakkab manba hisoblanadi. Shuning uchun ham odamlar Kalomullohni chuqur idrok etish uchun va mazmun mohiyatiga imkon qadar to'liqroq etishish uchun unga tafsirlar yozilgan. Qur'oni tafsir etuvchilarni mufassirlar deyiladi. Bu iborani arabchadan o'zbek tiliga tarjima qilsak, tafsir etuvchi, sharhlovchi, izohlovchi degan ma'nolarni anglatadi. Shu nuqtai nazaridan mufassirlar Qur'oni ilmiy asosda sharhlab, kishilarga tushunarli tarzda etkazib bergenlar. Agar mufassirlar tarixiga nazar solsak, bizning yurtimizdan ham tafsir ilmi bilan shug'ullangan bir qator mufassirlarni ko'rish mumkin. X asrda faoliyat ko'rsatgan samarqandlik taniqli olim Abul Lays as-Samarqandiy (913-985) fiqh, usul, aqida, tasavvuf bo'yicha ko'plab asarlar yaratgan. Lekin bu olimning eng mashhur asari Qur'oni karimga yozilgan tafsiri «Bahr ul-ulum» («Ilmlar dengizi») nomli asari bo'lib, u «Tafsir Abul Lays» nomi bilan ham mashhur. Tafsir ilmida muhim hisoblangan bu asarning qo'lyozma nusxalari Qohirada va Toshkentda saqlanib, uning Misr olimlari tomonidan 3 jilddagi nashri tayyorlanib, u 1993 yili Bayrutda chop etilgan.

Xorazmlik buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144) hadis, fiqh, arab tili (nahv-sarf), odob-axloq, geografiya, aruz kabi ilmlarga oid oltmishta yaqin asarlar yozgan bo'lib, ularning orasida allomaning Qur'oni karimga bag'ishlangan «al-Kashshof» nomli tafsiri alohida o'rin egallaydi. U bu tafsirida arab tilining balog'ati va fasohati hamda lug'aviy imkoniyatlaridan g'oyatda katta mahorat bilan foydalangani barcha olimu ulamolar tomonidan yuqori baholanib keladi.

Yurtimizdan chiqqan taniqli mufassirlardan yana biri Abul Barakot an-Nasafiy (1232-1310) bo'lib, uning qalamiga mansub «Madorik at-Tanziyl an haqoiq at-ta'vil» nomli qimmatli tafsirni aytish mumkin. Bu tafsirning qo'lyozma nusxalari arab mamlakatlarida, shuningdek, Londondagi «Britaniya kutubxonasi» ushbu tafsirning o'n ikkita qo'lyozma nusxasi saqlanishi ham uning ilmiy-amaliy qimmati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

«Ash-Shayx ar-rais» degan o‘ta yuksak ilmiy maqomga sazovor bo‘lgan, tabobat, falsafa va mantiq ilmlarining allomasi hisoblangan Abu Ali ibn Sino (980-1037) hazratlari o‘z samarali ilmiy ijodiy faoliyati davrida Qur’oni Karimning bir qancha suralariga tafsir yozganlari ham ilm ahllariga yaxshi ma’lum. Toshkentda, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Qur’onning uchta oxirgi («al-Ixlos», «al-Falaq», «an-Nos») suralariga Abu Ali ibn Sino tomonidan yozilgan tafsirning qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Londondagi «Britaniya kutubxonasi»da esa buyuk vatandoshimizning o‘n bitta muborak suralarga yozgan tafsirlarining qo‘lyozmalari mavjud.

Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning olti juzdan iborat Tafsiri Hivil kitoblari 2017 yili nashr etildi.

Hadislar - Kur’ondan keyin mu’tabar manba



Hadis (arab. - xabar, yangilik; xikoya, rivoyat) - Muxammad (s. a. v.)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar. Hadislar Islom dinida Qur’ondan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Qur’onda barcha xukuiy va axlokiy masalalar umumiylar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izoxlash uchun Muxammad (s.a.v.) o‘z Hadislarini aytganlar. Rasululloh alayhissalom ummatlarim islam dinini tushunishga qiynalmasin, ularning maishiy turmushi, iqtisodiy, ma’naviy hayotiga osonlik bilan kirib borsin degan maqsadda sodda tilda hadislar aytganlar. Qur’oni karimni ko‘pchilik o‘qigan, biladi, iboralari juda murakkab, juda qiyin. Mufassal yozilgan tafsirlar yordamida qayta-qayta o‘qishni talab etadi. Hadislar esa juda oddiy, sodda va lo‘nda qilib aytilgan.

Hadis 2 qismdan iborat: matn va isnod. **Matn** (arab. – bel, matn) – hadis istilohida sanaddan keyingi ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari.

Isnod (arab. – tayanch, dalil, asos) – hadis rivoyat qilishda nomlari eslatiladigan hadis roviylari zanjiridagi har bir roviyga qilingan ishora, havola yoki tayanish. Bir hadisni boshqasiga naql qilgan roviy uning kimdan eshitganini yoki kimdan olganini, u hadis olgan kishining kimdan naql etganini ba’zi mahsus iboralar yordamida aniq belgilaydi. Bu holda hadisning ilk manbai bo‘lgan Muhammad (s.a.v)ga qadar bo‘lgan uzluksiz naql zanjiri ko‘rsatib o‘tiladi. Bunday naql zanjiriga isnod deyiladi. Hadis ikki qismdan iborat: sanad va matn. Sanad

hadisning Muhammad (s.a.v)ga qadar ulashgan rivoyat zanjirini vujudga keltirgan roviylar. Roviylarning ismlarining “haddasano”, “axbarano”, “anba’ano”, “an”, “anna” va sh.k lafzlar bilan zikr etilishiga isnodni bir ma’noda qo’llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo‘lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to‘plovchi (muhaddis)ga qadar barcha shahslarning ismlari birma-bir ko‘rsatib chiqiladi, bu esa hadisning asosi, dalili hisoblanadi. Allomalar hadisning haqiqiy yoki sohta ekanini ismlari keltirilgan roviylarni tekshirish orqali aniqlashgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatlari shartga to‘g‘ri kelsa, isnod to‘g‘ri, demak, hadis ham to‘g‘ri deb hisoblangan.

Roviy, musnid (arab. – rivoyat qiluvchi) – sanad zanjirida turib, o‘zidan oldingi kishidan hadis eshitib, rivoyatlarning barcha shartlariga rioya qilgan holda keyingilarga aytgan kishi. Roviyning rivoyatiga uning talab darajasida bajarishi va adolatiga qarab baho beriladi. Roviyning darajasi tug‘ilgan va vafot sanasi, ustoz, shogirdlari va boshqalar orqali aniqlanadi. Imom Buhoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy va boshqa allomalar oxirgi roviylar hisoblanadi. Ulargacha hadislar og‘zaki rivoyat qilingan. Ibrohim ibn Ali Basriy, Yazid ibn Ibrohim Tustariy, Fotima binti Sa’d mashhur roviy laqabini olishgan. Roviy ham ishonchli, ham zaif bo‘lishi mumkin.

Shunday purma’no, hikmatli gaplar naqadar aniq, sodda va tushunarli holda aytiganligi uni to‘liq tushunib, idrok qilishda katta ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, hadislarning rivoyat qilish uslubi haqida ham gapirish mumkin. Bu ilmi rivoyat deb aytildi. Rivoyat qilishning ham o‘z qonun-qoidasi bor. Bu ilm roviylar aytgan hadislarning qay darajada sahih – ishonchli yoki ishonchsiz, noaniq, xato, chalkash, soxtaligini aniqlashga xizmat qilgan. Muhaddislar hadis sifatida talqin qilingan gaplarning bunisi haqqoniy, bunisi soxta deb ajratib berishgan.

Hadis 2 turga bo‘linadi: 1) **Hadisi qudsiy** – ma’nosи Alloh taolodan bo‘lib, aytilishi, ya’ni lafzi Rasulullohdan bo‘lgan hadislar. 2) **Hadisi nabaviy** – ma’nosи ham, lafzi ham Rasullullohdan bo‘lgan hadislar.

Hadislarning quyidagi ko‘rinishlari ajratiladi: 1) “Mutavotir” (ko‘pchilik tomonidan, kamida 30 sahobiy, 30 tobe’in, 30 taba’i tobe’inlar tasdiqlagan) hadislar. Mutavotir – yolg‘onga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lmagan rostgo‘yligi e’tirof etilgan darajadagi ko‘pchilik kishilarning boshdan oxirigacha o‘zlar kabi kishilardan naql qilgan rivoyati.

2) “Mashhur” hadislar. Hasan hadis – sahih hadis shartlariga ega bo‘lgan, lekin zabti pastroq bo‘lgan adolatli roviyning o‘zi kabilardan qilgan rivoyati.

3) “Ohod” hadislar (zaif hadislar)

Hadisshunoslik

Qur’oni karimni o‘rganadigan fanlar, ilmlardan tashqari, payg‘ambarimiz hadislarini har tomonlama chuqur o‘rganish munosabati bilan hadis ilmi paydo bo‘lgan. Hijratning uchinchi asri hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o‘scha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bog‘dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi muhaddislar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo‘lib, ularni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Dovud,

Imom At-Termiziy, Imom An-Nasoiy va Imom ibn Mojja tuzishgan

Muxaddislar:

- | | |
|-------------------|------------------|
| 1. Imom Buxoriy | “Jome’-as Saxix” |
| 2. Imom Muslim | “Jome’-as Saxix” |
| 3. Imom Abu Dovud | “ Sunan” |
| 4. Imom Termiziy | “ Sunan “ |
| 5. Imom Nasoiy | “Sunan “ |
| 6. Imom ibn Moja | “Sunan“ |

Bu olti kitob “Sixoxu sitta” (olti saxix kitob) deyiladi.

Hadis kitoblari:

1. “Sahih” kitoblar.
2. “Sunan” kitoblar. Hadislar fiqh boblari asosida keladi (Mas. taxorat kitobi, kitobus salot va b.)
3. “Jome” – jamlovchi kitoblar.
4. “Musnad” kitoblar (Imom Ahmad ibn Hanbal musnadi)
5. “Mu’jam”- alifbo bo‘yicha kitoblar (Imom at-Tabaroniy)
6. “Mustadrak” kitoblar (biror muhaddis shartlari bo‘yicha kitobiga kiritmagan hadislar to‘plami-kitobi.)
7. “Mustaxraj” kitoblar (oldingi muhaddis kitobidagi hadislarni o‘zi topgan roviylar bo‘yicha tuziladi.)
8. Juzlarga oid kitoblar.

Ko‘plab buyuk hadisshunoslarning yurtimizdan yetishib chiqqanligi har birimizda faxr-iftixon uyg‘otadi.

Movarounnah zaminidan etishib chiqqan dastlabki muhaddislardan biri marvlik mashhur olim Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy (736-798) bo‘lib, u o‘z davrining ko‘plab olimlaridan hadis va fiqh ilmlarini o‘rgangan. Uning mashhur ustozlaridan Abu Hanifa va Molik ibn Anas kabi sunniy yo‘nalishning ikki mazhabining (hanafiya va molikiya) asoschilarini ko‘rsatish mumkin. Abdulloh ibn al-Muborak al-Marvaziy o‘nga yaqin asarlar yozgan bo‘lib, ularning aksar qismi hadis ilmiga bag‘ishlangan. Yurtimizdan chiqqan yana yirik bir muhaddis imom ad-Dorimiy (798-869) Samarqand yaqinidagi Dorimda tavallud topgan. Bu olimning qalamiga mansub asarlar ichida uning hadis ilmining turli masalalariga bag‘ishlangan asarları asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda allomaning eng mashhur asari «Al-Musnad» bo‘lib, bu asar «Sunan ad-Dorimiy» nomi bilan mashhur. Asarning ikki jilddan iborat nashri 1996 yilda Livan poytaxti Bayrutdagi «Dor al-kutub al-ilmiyya» matbaasida chop etilgan. Ushbu asar muqaddima va ko‘plab kitoblardan iborat bo‘lib, o‘z navbatida har bir kitob ham ko‘p sonli boblardan tashkil topgan. E’tiborli tomoni shundaki, Imom ad-Dorimiy o‘z asari «Sunan»da keltirilgan hadislarni deyarli u yashagan davrda faoliyat ko‘rsatgan buyuk muhaddislar – al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud as-Sijistoniy, at-Termiziy, an-Nasoiy, Ibn Moja va boshqa ko‘plab taniqli hadisshunoslар o‘z asarlarida keltirganlar. «Hovlisida xurmo daraxti bor xonardon ahli hech qachon och qolmaydi» yoki «eng yaxshi nonxurush (priprava) sirkadir» kabi hadislarni yuqorida zikr qilgan ko‘pchilik muhaddislar Imom ad-Dorimiyan rivoyat

qilganlar.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning olti yuz mingga yaqin muborak hadislarini yodlarida saqlagan benazir alloma imom al-Buxoriy hazratlari haqida uning zamondoshlaridan biri taniqli olim Amr ibn Ali al-Qallosning «Imom al-Buxoriy bilmagan hadis-hadis emas», -degan yuksak va samimiyy bahosidan ayon bo‘ladiki, buyuk muhaddis imom al-Buxoriy hazratlari Payg‘ambarimiz alayhissalomning muborak tillaridan sodir bo‘lgan barcha hadislardan xabardor bo‘lganlar. Arab olimining bu yuksak e’tirofini barcha muhaddislarning imomi (imomu-l-muhaddisiyn), hadis ilmining sultonı (amiru-l-mu’miniyn fi-l-hadiys), butun dunyoning imomi (imomu-d-dunyo) degan o‘ta sharaflı rutbaga sazovor bo‘lgan imom al-Buxoriy hazratlarining aql bovar qilmaydigan darajadagi noyob ilmiy salohiyatiga xolisona baho, umumbashariy ta’zim va ehtirom deb izohlash mumkin. “Doiratal-maorif al islomiya” kitobida shunday yoziladi: “Imom Buhoriy quvvai hofizasi buyicha Allohning erdag'i mo‘jizalaridan biridir.”

Payg‘ambarimiz alayhissalom hadislarining asliyatini ilmiy asosda aniqlash va jamlash masalasida imom al-Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. Bu yo‘nalishda buyuk muhaddis birinchilardan bo‘lib ishlab chiqqan talab va qonun-qoidalar hadis ilmida «Imom al-Buxoriy shartlari» («Shurut al-imom al-Buxoriy») yoki «Sahih al-Buxoriy shartlari» («Shurut «Sahih al-Buxoriy»») deb atalib, undan keyingi barcha muhaddislar tayanib asarlar yaratadigan asosiy dasturulamal vazifasini o‘tagan.

Buyuk muhaddisning qalamiga mansub yigirma beshdan ortiq asarlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati hadis ilmi va uning turli massalalariga bag‘ishlangan. Mana shu asarlar ichida uning «al-Jome’ as-Sahih» asari islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keyingi o‘rinda turadigan ikkinchi muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda.

Yurtimizdan chiqqan buyuk muhaddislardan yana biri Abu Iso Muhammad at-Termizi (824-892)dir. Imom at-Termizi asarlarining ichida eng mashhuri shubhasiz «Al-Jome’» bo‘lib, u oltita ishonchli hadislar to‘plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-Jome’ as-sahih», «Jome’ at-Termizi», «Sunan at-Termizi» nomi bilan ham atalib, Payg‘ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

Imom at-Termiziyning mashhur asarlaridan yana biri «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning shakl-shamoyillari») bo‘lib, ba’zi manbalarda «Ash-shamoil an-nabiy salollohu alayhi vasallam» nomi bilan ham keltiriladi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu asar Payg‘ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlari, odatlariiga oid 408 hadisi sharifni o‘z ichiga qamragan manbadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, Payg‘ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to‘plash bilan juda ko‘p muhaddislar shug‘ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o‘rin olgan. Lekin at-Termizi asarining afzalligi shundaki, u hadislarni muntazam ravishda to‘plib, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob holiga keltirgan. Muhammad alayhissalomning hayotiga doir muhim manba sifatida «Ash-shamoil an-nabaviya» azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarining diqqatini o‘ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga

bir qancha sharhlar ham yozilgan. Ushbu asarning tili ravon, uslubi g‘oyatda oddiyligini ham qayd qilib o‘tish o‘rinlidir. Asarning fors va turk tillariga tarjima qilinishi ham unga bo‘lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi. «Ash-shamoil an-nabaviya»ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar Payg‘ambarimiz alayhissalomning suvrat (tashqi qiyofa)lariga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyolari-yu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag‘ishlangan.

Mashhur musulmon olimlari orasida astronomiya bo'yicha eng yaxshi kitob muallifi Ali Ibn Abu Ar-Rijal va Arab xirurgiyasining otasi Al-Qosim Al-Zahraviyni qayd etish lozim. U anatomiyada mashhur bo'lgan Andalusiya shifokorlaridan biri bo'lib, jarrohlik asboblarini birinchi bo'lib ishlatgan. Mashhur matematik Al-Bigani, geograf Al-Forobi, faylasuf Abu Hamid Al-G'azoliy, optikaning otasi Al-Hasan Bin Al-Haysam; kichik qon aylanish doirasini kashf etgan olim Ibn An-Nafisni ham aytib o'tish kerak; taniqli tibbiyat olimlari Ibn Sino, Ibn Rushd Ar-Roziy va Abu Ja'far Bin Al-Jazzar, shuningdek, mashhur kimyogar Jobir ibn Xayyyon va boshqalar. Musulmon olimlari qilgan ilmiy inqilob butun insoniyat uchun ulkan bilimlar omboridir. Millat taraqqiyoti va taraqqiyotining yagona yo'li ilm-ma'rifat yo'li ekanligini yaqqol isbotlaydi.

Islom arxitekturasi

Musulmon madaniyati bilan bog'liq barcha san'atlardan arxitektura eng e'tiborli, o'ziga xos va ta'sirchan. Masjidlar, musulmon diniy binolari qurilishi dastlab mintaqaviy an'analarga asoslangan edi, ammo vaqt o'tishi bilan yangi uslub rivojlandi, bu esa diniy binolarning mahalliy xususiyatlarini saqlab qolgan holda yangi ibodat ehtiyojlariga bo'ysundi. An'anaga ko'ra, beshta me'moriy maktab mavjud: Suriya-Misr, fors, Hind, Mag'rib va Usmonli (kichikroq, masalan, Iraq, Markaziy Osiyo, lotin hisoblanadi).

Masjidlarning ko'rinishi asosan quruvchilar ixtiyoridagi qurilish materiallariga bog'liq edi. Masalan, Suriyada bazalt jinslarining ko'pligi tufayli ko'pincha devor qoplamasida qora va oq tosh almashinadigan inshootlarni topish mumkin (keyinchalik bu turdag'i g'ishtlar boshqa mamlakatlarda ham ishlatalgan). Bir qator mamlakatlarda (Eron, Iraq, Marokash, shuningdek, Andalusda) masjidlar g'ishtdan, boshqa joylarda - yo'nilgan toshdan qurilgan.

Ustunli masjidlar bilan bir qatorda Markaziy gumbazli to'rt ustunli binolar (Ayvan—ustunli zal) qurildi. Tromplardagi gumbaz (konvergent devorlar burchaklaridagi konussimon "elkanlar") Misrda 14 va 15-asrlarda keng qo'llanilgan. Ko'pincha maqbara ustida qurilgan. Fotimiylar sulolasini hukmronligi davrida gumbaz qirrali shaklni oladi.

Masjidning muhim elementi minoradir. Juma masjidining minorasi har bir musulmon shaharda hukmronlik qilib, binoning maxsus esdalik siluetini yaratdi. Odatda minoralardan biri kattaligi va go'zalligi uchun ajralib turardi. O'rta asr Andalusiyasida bu Giralda minorasi, Marokashda Kutubiya minorasi, Hindistonda Dehli Qutb Minori, Afg'onistonda Jama minorasi, O'rta Osiyoda esa Buxoro Kalon minorasi mashhurdir.

Odatda, Mag'rib va Andalusiya minoralari to'g'ri burchakli asosga qurilgan bo'lib, ba'zan bular bir-birining ustida turgan kublarni ko'paytirmoqda. 11-13-asrlardagi Eron minorasi baland va ingichka, yumaloq minora bo'lib, binoni

yorituvchi bir xil chiroq joylashtirilgan. Qohiradagi eng qadimgi masjidlardan biri Ibn Tulun minorasi Samarra (Iroq) shahridagi Mutavakkil masjidi "Malviya" ("burama" – Arabcha) minorasiga o‘xshaydi, uning tanasi kesik konus bo‘lib, atrofida spiral rampa joylashgan. Turkiya va Bolqon yarim oroli hududida Usmoniyalar davrida qurilgan minoralar yanada ko‘rkam, noz-ne’matlar bilan jihozlangan. Qoida tariqasida, ularning yuqori qismida shurfe ochiq balkonlari bor, ulardan muazzin sodiqlarni ibodatga chaqirdi.

O‘rta Osiyo hududida minoralar odatda masjid binosidan alohida turadi, ular g‘isht bilan qoplangan kuchli minora bo‘lib, tashqi qirrasi rangli sir yoki polixrom koshinlar bilan qoplangan.

Suriya, Misr va Turkiya me’morlari namozxonlarni "qoplagan" tom sifatida baraban ustidagi hajmli gumbazlardan foydalanishgan. Temur maqbarasining "go‘r-Amir" (1404) gumbazli gumbazi o‘zining ko‘rkamligi bilan hanuzgacha hayratga soladi. Lekin tekis va Nishab tomli masjidlar bor edi. Bu diniy binolarning barchasi Makkaga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak edi, uning yo‘nalishi mehrob nishoni tomonidan belgilangan qibla tomonidan ko‘rsatildi. Mihrabning joyi odatda rangli toshdan yasalgan va archani ifodalaydi. Ba’zan mihrab tokcha yarim ustunlar ustida dam, boshqa bir ajratish, bir yoki bir necha o‘tkir kamar shaklida ijro etiladi. Qohiradagi Sulton Kalaun (1284-1285) ning mariston (gospital) fasadining oynalarini bezashda ham xuddi shunday uslub qo‘llanilgan.

Turli tipdagi archalar – taqa shaklidagi, "singan", ustunlar va "stalaktitlar" ni poytaxt sifatida ishlatish-Islomning diniy binolarini bezashning sevimli usuli hisoblanadi. Arkalar Namozgoh ustunlari orasidagi arkalarni bezash uchun, oynalarini bezash uchun (shu jumladan, yolg‘on) ishlatiladi. Stalaktit kapital odatda turli elementlardan (7 dan) yig‘ilgan bo‘lib, ustunning karnizini yaratgan. Bular Al-Gambra saroyining sher hovlisidagi stalaktit misralaridir.

Masjidlarning dizayni ham katta o‘yilgan eshiklar bilan ajralib turadi, ba’zan ko‘p qirrali yulduzlar shaklida metall parchalar bilan bezatilgan yoki naqshli geometrik shakllar kesishgan mis qopqog‘ida "kiyingan". Bu Qohiradagi Al-Muayyad masjidining asosiy portalining eshigi.

O‘rta Osiyo va Hindistonda diniy binolar, odatda, kuchli portallar (2-3 qavat baland) bilan jihozlangan (pishtak - fors). Odatda ularning yuzasi butunlay rangli keramika mozaikasi bilan qoplangan. Bu Samarqanddagagi "Shirdor" madrasasining (1619) mashhur portalidir. Bu inshoot musulmon dunyosining sharqida masjid qurishning boshqa rejasiga amal qilganliklarini ko‘rsatadi. Gumbaz ostidagi Namozgoh to‘rtburchak bo‘lib, qo‘shimcha xizmatlar uni atrofi hoshiyalab, masjidga kirish joyi oldida bo‘sh joy qoldirgan. Ba’zan yonma-yon xonalar hovli bilan chegaradosh bo‘lib, unda favvora yoki basseyn, shuningdek, tahoratxonalar mavjud edi. Odatda, Sulton Humoyunning janoga masjidi (1565, Dehli).

Musulmon me’morchiligi ko‘p rangli keramika, yog‘och o‘ymakorligi yoki taqillatish yordamida badiiy vositalar bilan yasalgan Qur’on matnidan parchalarning bezak elementi sifatida foydalanish bilan tavsiflanadi. Ba’zan bunday bezak ichki perimetri bo‘ylab ishlaydigan Friz rolini o‘ynaydi. Eronda hunarmandlar "korde seka" texnikasida maxsus polixrom sopol taxtachalar ishlab chiqqorganlar. Devorda tasvirlanishi kerak bo‘lgan iboraga muvofiq, har bir plitaga

harf, bo‘g‘in yoki so‘zning bir qismi joylashtirildi. So‘ngra cherepitsa (amaliy bo‘yoqlar soniga ko‘ra) bir necha olov duchor bo‘ldi. Shunday qilib, Qur‘onning butun qismlari tuzildi, ular ichki va masjidga kirishni bezatdi.

Ornament musulmon Sharq me’morchiligidagi muhim rol o‘ynagan.. Keyinchalik ko‘pburchaklar va ko‘p qirrali yulduzlarning murakkab kombinatsiyasi asosida qurilgan chiziqli-geometrik bezak keng tarqaldi. Shunday qilib, yangi bezak kompozitsiyasi paydo bo‘ldi - bu diniy va dunyoviy binolarni bezatishga imkon berdi. Yaqin Sharq me’morlari arabesk larning rivojlanishida eng yuqori mahoratga erishdilar. Tashqi devorlarda ham, musulmon binolarida ham mavjud bo‘lgan son-sanoqsiz kompozitsiyalar shuni ko‘rsatadiki, boshqa Arabesk naqshini yaratishda usta mantiqan qat’iy va matematik tarzda tasdiqlangan naqsh va tasavvurining parvozi bilan boshqarilgan, bu Islom tomonidan ruxsat etilgan chegaralar ichida cheklangan ko‘rinmaydi.

Islom me’morchiligi-ijtimoiy, madaniy, diniy va siyosiy hodisa sifatida. Islomdan kelib chiqqan turli me’moriy uslublarning kombinatsiyasi. Islom me’morchiligi diniy va dunyoviy muassasalar va binolarni o‘z ichiga oladi. Islom me’morchiligi ilk Islom davrida ham mashhur bo‘lgan va Islom ta’siri ostida musulmon va boshqa mamlakatlarda zamonaviy davrga oid me’moriy uslublarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Me’moriy uslub yaqin Sharqda VII asrda paydo bo‘lgan va O‘rta asrlar davomida Shimoliy Afrika, Ispaniya, kichik Osiyo, Hindiston va Eron, O‘rta Osiyo va Kavkazda rivojlangan. Keyinchalik Islom me’morchiligi Janubi-Sharqiy Osiyoga ham keldi. Hozirgi zamonda dunyo musulmonlari yashaydigan barcha joylarda Islom me’morchiligiga mos masjidlar qurilmoqda.

Masjid (arab.) - musulmon diniy ibodat makoni. Birinchi masjid Madinada Muhammad (s.a.v.) tomonidan qurilgan va faqat namoz uchun o‘ralgan edi. O‘rta asrlarda masjid diniy vazifalardan tashqari ijtimoiy vazifalarni ham bajargan: u erda talabalar o‘qitilgan, aholi to‘plangan, ziyoratchilarga boshpana berilgan va hokazo.

Madrasa (arab.) - ikkinchi darajali ta’lim beruvchi diniy o‘quv yurtlari. Yagona majburiy madrasa Islom huquqi edi. Madrasalar huquqshunoslik matabiga qarab taqsimlangan va bir madrasada bir necha muktab mavjud bo‘lsa, ularning har biriga alohida ma’ruzalar zali tayinlangan. Madrasalar odatda talabalarning hujralari bilan o‘ralgan hovli atrofida joylashgan bo‘lib, madrasa binosida masjid va kamida bitta ma’ruza zali bo‘lishi shart.

Honaka (o‘zbekcha), - tasavvuf ustozlari va ularning talabalari yashashi uchun mo‘ljallangan majmuadir. Odatda diniy amaliyotlar uchun zal, masjid va talabalarning hujralaridan iborat bo‘lgan. Dastlab xonaqohlar ziyoratchilar va darbadarlar uchun pana joy edi, lekin darbadarlarning ko‘pchiligi tasavvuf darveshlari bo‘lgani uchun xonaqohlar so‘fiylikning o‘chog‘iga aylanganlar.

Zaviya (arab.) — "Zavqiy" - "ibodat uyi", yoritilgan. "burchak") - hujra, so‘fiylar monastiri, so‘fiylar ibodat qilib kun kechiradigan tanho joy[3]. Dastlab Zaviya masjidda yoki unga xonaqoh deb atalib, unda musulmonlar Qur‘on, Arab tili va b.o‘qishni o‘rgatishgan. XII asrdan boshlab so‘fiylar qardoshlik (tariqas) paydo bo‘lgandan keyin Zaviya uning talabalari (muridlari) o‘qigan Shayx (ustoz)

maskani deb atala boshladi. O'rta asr oxirlarida Shimoliy Afrikada zaviyalar har qanday tariqaning tashkiliy tuzilishining asosiy hujayrasiga aylandi. Ular murakkab inshoot bo'lib, kichik masjid, Shayx va muridlar uy-joylari uchun xonalar hamda darbadar (darvesh) lar uchun bospanadir. Yuzlab so'fiylar uchun monastir bo'lgan xonaqodan farqli o'laroq, Shayx va uning muridlari odatda Zaviyada yashaydilar.

Rabot -dastlab karvonlarga bospana berish va karvon yo'llarini qo'riqlash uchun mo'ljallangan mustahkamlangan mamlakat karvonsaroyi murabiylar, kofirlarga qarshi kurash uchun qasamyod qilgan kishilar istiqomat qilgan. Keyinchalik Ribotlar xonaqohlarga vazifasini yaqinlashtirib, so'fiylik madaniyati markazlariga aylangan va Murabutlar nomi Ribotlar istiqomat qilgan darveshlarga murojaat qila boshlagan.

Jamoat binolari: Islom dunyosi: karvonsaroylar (yo'l chetidagi mehmonxonalar), qoplangan bozorlar, xammom (jamoat hammomlari) va boshqa me'moriy inshootlar bilan ham ajralib turadi.

Mehrob - masjid devoridagi nish bo'lib, qiblani, ya'ni Ka'baning Makkada joylashgan yo'nalishini ko'rsatadi.

Islom bayramlari

Islom bayramlari – musulmonlar nishonlaydigan va muayyan diniy marosimlar bilan o'tkaziladigan mashhur kunlar. Ular ko'pchilik musulmon davlatlarda rasmiy umum-davlat ahamiyatga ega. Qurbon hayit (iyd al-adha), ramazon hayiti (iyd al-fitr) asosiy Islom bayramlari hisoblanadi. Hamma Islom bayramlari hijr yil hisobi bo'yicha nishonlanadi. Islom bayramlarini Muhammad (s.a.v) quyidagicha ta'riflaganlar: Har bir millatning o'z bayrami bor. Musulmonlar bayrami ro'za va qurbon bayramidir. Ammo isro va me'roj, rajab, ashuro, mavlud kabi kunlar umumiyy bo'lmay, ularni nishonlash ihtiyyoriydir. Nishonlamaganlar ayblanmaydi. Shu bilan birga, ular turli joyda turlicha nishonlanadi. Musulmonlar haftaning juma kunini "sayyid al-ayyom va haj al-masakiyn" (kunlar ulug'i va miskinlar uchun haj) hisoblaydilar.

4-MAVZU: ‘O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligi

REJA:

4.1. Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishga munosabatning o‘zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalb etilishi.

4.2. O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohani rivojlantirish va diniy bag‘rikenglik

4.1. Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishga munosabatning o‘zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalb etilishi.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli din vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri kishilarda turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy ma’lumotlar asosida turli din vakillarini har tomonlama chuqurroq tanitish va ular bilan muloqot qilishda etarli bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bunday bilimlarni hosil qilishda esa, turlicha yondashuvlar bo‘lib, ularni atroflicha tahlil qilish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham yurtimizda o‘rta va oliy o‘quv muassasalarida dinshunoslik fani o‘qitilishining uzluksiz ta’lim tizimi joriy qilinmoqda. Ushbu fan bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, buning uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutuxassislar bilan ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mazkur ishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi har bir din o‘zining e’tiqodchilariga ega bo‘lib, u insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Chunki dunyo yaralgan ilk davrlarda sodda ko‘rinishda bo‘lgan diniy e’tiqodlar asta-sekin taraqqiy etib, rivojlangan. Shuning uchun ham din inson va jamiyat hayotida muhim funksiyalarni bajaradi va odamlarni faqat yaxshilikka, ezguliklarga chorlaydi. Insonlar har doim diniy e’tiqodga ehtiyoj sezganlar va unga bo‘lgan ishonchni hamma narsadan yuqori qo‘yib, atrofida birlashib, bir jamoa bo‘lib yashaganlar. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: “Din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi

orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir”.

O‘zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan va jahon hamjamiyatidan ajralib yashagan bir davrda G‘arbda XIX asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan dinshunoslik fani anchagina taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, bu sohada ko‘plab ilmiy natijalarga erishildi. Dinga munosabat o‘zgargan keyingi yillarda bu xususda yurtimiz va xorijda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari qilingan, ko‘plab adabiyotlar va darsliklar chop etilgan. Ayniqsa, XX asrning 80-yillaridagi qayta qurish davrida sobiq sovet ittifoqi respublikalarida dinga munosabat butunlay o‘zgardi. Natijada bu sohaga jiddiy e’tibor berilib, chuqr va xolis-ilmiy o‘rganila boshlandi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda dinlarni o‘rganish va o‘qitish borasida, umuman dinshunoslik sohasida muhim burilish sodir bo‘ldi. Mazkur masalalarga oid yangi ruhdagi bir qancha adabiyotlar va darsliklar chop etildi va hamon bu jarayon faol davom etmoqda. Hozirda ta’lim tizimida dinshunoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha respublika miqyosida tajriba maydonlari tashkil qilingan. Bunday muhim va dolzarb, ayni paytda jiddiy mas’uliyatli vazifani bajarishda A.Hasanov, H.Karomatov, S.Agzamxodjaev, N.Nizomiddinov, M.Ortiqov, Sh.Yovqochev, E.Ibragimov, D.Raximjonov, N.Muhamedov kabi yurtimizdagi taniqli olim va tadqiqotchilar sa’y-harakat qilib, jonbozlik ko‘rsatmoqdalar.

Mana shunday ishlarda ayniqsa Islom Akademiyasining ham muhim o‘rni bor. Universitetda maktablarda dinshunoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha ko‘pgina seminarlar, anjumanlar o‘tkazildi. Mazkur fanlar bo‘yicha ta’lim beradigan o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Shuningdek, nashriyotida O‘zbekiston tarixida ilk bor 2001 yilda Dunyo dinlari tarixi fani bo‘yicha mакtab o‘quvchilari uchun darsliklar nashr qilindi.

Islom Akademiyasida Dinshunoslik Islomshunoslik kafedrasi va Islomshunoslik tadqiqot markazi faoliyat yuritmoqda. Ularda ham dinshunoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha tegishli qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Mazkur qo‘llanma va adabiyotlar ham mahalliy, ham xorijiy manba va adabiyotlardan foydalanib, xorijiy soha mutaxassislar erishgan yutuq va tajribalarini o‘rgangan holda yaratilmoqda.

Bu esa, yurtimizda ham dinlarni o‘rganishdagi yondashuvlar, uslubiyat va dasturlar, demakki, O‘zbekistonning o‘ziga xos dinshunoslik mакtabi yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Albatta ilk bor qo‘l urilgan bunday ishlarda kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Ularni takomillashtirish jarayoni hamon davom etmoqda.

Dinlarni o‘rganishdagi turli xil yondashuvlarni atroflicha qiyosiy tahlil qilish, O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishda qanday yondashuv va tamoyillarga rioya etishimiz kerak, degan savol juda dolzarbdir. Bu ham asosiy maqsad – yurtimizda dinlarni o‘rganishning o‘ziga xos uslubiyati, yondashuv va tamoyillarini yanada takomillashtirish qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli din vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri kishilarda turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy ma’lumotlar asosida turli din vakillarini har tomonlama chuqurroq tanitish va ular bilan muloqot qilishda etarli bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bunday bilimlarni hosil qilishda esa, turlicha yondashuvlar bo‘lib, ularni atroflicha tahlil qilish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham yurtimizda o‘rta va oliy o‘quv muassasalarida dinshunoslik fani o‘qitilishining uzluksiz ta’lim tizimi joriy qilinmoqda. Ushbu fan bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, buning uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutuxassislar bilan ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mazkur ishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi har bir din o‘zining e’tiqodchilariga ega bo‘lib, u insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Chunki dunyo yaralgan ilk davrlarda sodda ko‘rinishda bo‘lgan diniy e’tiqodlar asta-sekin taraqqiy etib, rivojlangan. Shuning uchun ham din inson va jamiyat hayotida muhim funksiyalarni bajaradi va odamlarni faqat yaxshilikka, ezguliklarga chorlaydi. Insonlar har doim diniy e’tiqodga ehtiyoj sezganlar va unga bo‘lgan ishonchni hamma narsadan yuqori qo‘yib, atrofida birlashib, bir jamoa bo‘lib yashaganlar.

Bu esa, yurtimizda ham dinlarni o‘rganishdagi yondashuvlar, uslubiyat va dasturlar, demakki, O‘zbekistonning o‘ziga xos dinshunoslik maktabi yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Albatta ilk bor qo‘l urilgan bunday ishlarda kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Ularni takomillashtirish jarayoni hamon davom etmoqda.

Dinlarni o‘rganishdagi turli xil yondashuvlarni atroflicha qiyosiy tahlil qilish, O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishda qanday yondashuv va tamoyillarga rioya etishimiz kerak, degan savol juda dolzarbdir. Bu ham asosiy maqsad – yurtimizda dinlarni o‘rganishning o‘ziga xos uslubiyati, yondashuv va tamoyillarini yanada takomillashtirish qaratilgan.

XXI asrning boshlarida dunyo miqyosidagi qarama-qarshilik va shu bilan birga insoniyatning birlashishi va yaqinlashuvi madaniyat va sivilizatsiyalar, diniy, milliy va mintaqaviy ko‘rinishda yuz berayotgani ma’lum. Shu yo‘sinda har bir jamiyat, davlat va uyushma jahonda sodir bo‘layotgan turli voqealarda ularning axloqiy negizlari va ma’naviy asoslarini topishiga intiladilar. Aniq dalillardan biri ham shuki, globallashuv jarayoni ko‘p hollarda alohida xalq va millatga xos bo‘lgan o‘zlikni, milliy va xalqchilik unsurlarini, diniy qadriyatlarga ham raxna soladi. Turli madaniyat va qadriyatlarning to‘qnashuvi natijasida har bir jamiyat a’zosining ma’naviy va axloqiy burchi va javobgarligi oshib boradi. Inson nafaqat o‘zi, oilasi va yaqinlari oldida, balki u yashayotgan jamiyat, davlat va o‘zligini mujassam etgan turli qadriyatlар oldida ham javobgar ekanligi mas’uliyatini his

etadi. Bir madaniyat namoyandasining boshqa madaniyat qadriyatlarini qabul qilishi har doim ham oson va tez bo‘lmanan.

Birinchidan, shaxsning shakllanishida diniy madaniyat ko‘proq ahamiyat kasb etib, insonning jamiyat, xalq, davlat, milliy madaniyat, qolaversa, o‘zi ibodat uchun loyiq deb e’tiqod qilgan dini oldida javobgarlik hissi va mas’uliyatini orttirdi.

Diniy madaniyat – bu har bir insonning ma’naviy va axloqiy-diniy kuch-quvvatini jamiyat rivojidagi totuvlik va tinchlikni asrash, davlat taraqqiyoti, oliy insonparvarlik g‘oyalarning amalga tadbiq etishidagi asosiy vositasidir. Shuning uchun ham axloq masalasining ma’naviy va diniy jihatlari jamiyatning keng ma’naviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Asrlar davomida esa bu muammo mutafakkirlar, olimlar, diniy arboblar, faylasuf va siyosatchilar diqqatini tortgan. Chunki bu omil jamiyatga ta’sir etish vositalari ichida eng samarali hisoblanadi.

Ikkinchidan, insonning jamiyat oldidagi mas’uliyati muammosi va masalalari ham tarixiy va ham diniy nuqtai-nazaridan taddiq etishni talab qiladi. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillilik, millatidan qat‘i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O‘zbekiston aholisiga xos fazilatlardir.

Bularning barchasi diniy madaniyatda mujassam bo‘ladi. Zero ma’naviy, axloqiy mas’uliyat ijtimoiy taraqqiyotning barqaror turishiga sabab bo‘ladigan omil sifatida, insonlarning turli sohalaridagi munosabatlarini qamrab oladi. Axloqiy mas’uliyat ma’naviy boylik sifatida jamiyat va insonlarning diniy madaniyati taraqqiyotining kamolotiga dalildir.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyat hayotining iqtisodiy va madaniy globallashuvi insoniyatning uch ming yillik taraqqiyotining natijasi bo‘lib, turli davlat va siyosiy tuzilmalarning keng integratsiyasiga olib kelishi insoniyatning tarix va o‘tmish ma’naviy madaniyati oldidagi javobgarligini yanada oshirdi. Ushbu muammoning hal etiishi, tadqiq etib, o‘rganilishi bizning respublika va butun O‘rta Osiyo mintaqasi uchun o‘ta dolzarb bo‘lib kelayotir. Ma’lumki, tarix, ma’naviy meros, urf-odat, an’ana va qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatsizlik, undan xabarsiz bo‘lish oxir oqibat kelishmovchilikka (disbalansga), inson va madaniyat, inson va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unsizlikka olib keladi.

To‘rtinchidan, ma’lumki o‘zbek xalqiga tarixan o‘z oilasi, qarindoshlari, mahallasi, qishlog‘i, shahri, dini, barcha urf-odatlari va an‘analariga sodiq bo‘lishdek chuqur hissiyot xosdir. Umuman olganda, axloq sohasidagi ayni shunday mas’uliyat Sharq xalqlarida urfga aylanib ulgurgan. Shuning uchun ham Sharqda har bir shaxs qandaydir axloqiy va ma’naviy mas’uliyat normalariga rioya qilib tayanadi.

Beshinchidan, insonning diniy madaniyati va mas’uliyati bozor munosabatlariga o‘tgan, huquqiy, demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan bugungi O‘zbekiston jamiyatida juda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari ushbu holat uning O‘rta Osiyo mintaqasi sharoitiga mos

bo‘lgan mahalliy, etnik va diniy jihatlarga, ijtimoiy o‘zgarishlarning dinamikasi, odamlar, millatlar va xalqaro munosabatlarning kengayishi, ijtimoiy hayotdagi ilmiy-axborotlarning tarqalishi, pirovard natijasida bir olam ma’naviy muammolarni kelib chiqishi va ularni hal etish bilan bog‘liq.

Insoniyat diniy madaniyatida biror-bir axloqiy nazariya yo‘qki, unda insonning ma’naviy, axloqiy mas’uliyati masalasi qo‘yilmagan bo‘lsa. G‘arb ma’naviy madaniyatida insonning axloqiy mas’uliyatining nazariy jihatlari antik davrdan boshlab, yangi va eng yangi davrgacha davom etgan (Sokrat, Aristotel, Lukretsiy Kar, Epikur, Kant, Gegel, Veber va b.). Mas’uliyat muammosining muammo sifatida o‘rtaga tashlanishi antik davr falsafasi hamda falsafiy-axloqiy risolalarda, O‘rtas asr diniy ta’limotlarda o‘z aksini topgan (Avgustin, F. Akvinskiy va b.).

Sharq madaniyati, jumladan islom madaniyatida keng o‘rin ajratilgan inson diniy madaniyati masalasi avvalgi dinlardan zardushtiylik va buddaviylik ta’limotlarida ham o‘rganilgan. Keyinchalik islom manbalari Qur’on, hadislar, kalom, tasavvuf, mu’taziliya, ash’ariya, ismoiliya kabi diniy ta’limotlari bu masala ko‘tarilgan va o‘ziga xos tarzda, turlicha hal qilingan.

4.2. O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohani rivojlantirish va diniy bag‘rikenglik

Mamlakatimizda milliy an’ana va qadriyatlarimizni rivojlantirish, ulug‘ alloma ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o‘rganish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, ilm-ma’rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Bu sohada olib borilayotgan islohotlar dunyo miqyosida ham munosib e’tirof etilib, diniy bag‘rikenglikning namunali modeli sifatida baholanmoqda. Xususan, O‘zbekistonning diniy erkinliklar sohasida alohida xavotir uyg‘otadigan davlatlar ro‘yxatidan chiqarilganligi, BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» rezolyusiyasining qabul qilinganligi bunga yaqqol misoldir. Diniy-ma’rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «jaholatga qarshi — ma’rifat» degan ulug‘vor g‘oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag‘rikenglik ruhini keng targ‘ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi.

BMT Bosh Assambleyasi 2018 yilning 12 dekabr oyida o‘tkazilgan yalpi majlisda «**Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik**» deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qildi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a’zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagи 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surildi.

2018 yil 16 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3668-sonli Qaroriga

muvofiq Qo‘mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. **Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a’zoga** – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.

2018 yilning 16 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur hujjat O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan: boshlang‘ich bosqichdan (o‘rtalik maxsus islom ta’lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta’limgacha.

2019 yil 4 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mitaning Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta’minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Bundan tashqari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tarkibida ayollar bilan ishslash bo‘limi tashkil etildi, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais o‘ribbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika targ‘ibot guruhi tashkil etildi.

O‘zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida **O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi** tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi.

O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi huzurida **«Ziyo» media-markazi** tashkil etilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma’rifiy hayotda sodir bo‘layotgan yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta’minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzurida **«Vaqf» xayriya jamoat fondi** tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi masjidlar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va shu kabi boshqa ob’ektlarning rekonstruksiyasini moliyalashtirish, ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu soha xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida Respublika miqyosida bir necha bosqichdan iborat (tuman, shahar, viloyat, respublika) Qur’oni Karim tilovati bo‘yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil etilib, unda 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi.

O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o‘rganishga ixtisoslashgan **beshta ilmiy maktab** ochildi.

Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan O‘zbekistonda Markaziy Osiyo musulmon mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojidagi roliga bag‘ishlangan 10 dan ortiq kitob va risolalar tayyorlandi.

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Alouddin Usmondiy, Saffar Buxoriy va h.k. kabi ulug‘ allomalar asarlarining aksariyati tarjima qilinib, 50 dan ziyod kitob nashr etildi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida jami **2276 ta** diniy tashkilot va **16 ta** diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan **2093** tasi musulmon tashkiloti, **166 ta** xristian tashkiloti, **8 ta** yahudiy jamoasi, **6 ta** Baxoiylik jamiyati, **1 ta** krishnachilar jamiyati va **1 ta** budda ibodatxonasi, shuningdek, O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

2019 yilda O‘zbekistonda **10 ta** yangi jome masjid ochildi, natijada masjidlarning umumiy soni **2066** taga etdi. Bundan tashqari, mamlakat miqyosida **46 ta** jome masjid binosi butunlay qaytadan bunyod etilib, **225 ta** masjid kapital ta’mirdan chiqarildi. **2018 yilda** esa respublikada **13 ta** jome masjidi qayta ochildi, **39** tasi yangi qurildi va qariyb **100** tasi qayta ta’mirlandi.

O‘zbekistonda Toshkent Islom universiteti, «Mir Arab» oliv madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 9 ta madrasa, jumladan, 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar o‘quv yurti, Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi diniy ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. 2020–2021 o‘quv yilidan boshlab Termiz shahrida yangi madrasa ochilishi rejalashtirilgan.

Mustaqillik yillarida **308 ming** nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo‘lsa, shulardan 130 ming kishi «Haj», 178 ming kishi esa «Umra» amalini bajarishga muvaffaq bo‘lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar Isroil, Rossiya, Turkiya, Italiya, Gruziya va Yunoniston kabi davlatlarning muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar.

2019 yildan e’tiboran O‘zbekiston fuqarolari uchun «Umra» ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. 2018 yildan boshlab «Umra» safari kvotasi 6 000 dan 10 000 ga oshirildi. Bugungi kunga kelib «Umra» qiluvchi fuqarolar soni 30 000 ga etdi, «Haj» esa 5000 dan 7,200 ga ko‘paydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqildi. Bunda asosiy e’tibor aholi o‘rtasida profilaktika va tushuntirish ishlariga qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha sa’y-harakatlar «Jaholatga qarshi ma’rifat» degan ezgu g‘oyaga asoslangan.

2018 yilning sentyabr oyida terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlarga adashib a’zo bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi tasdiqlandi.

Ilgari to‘g‘ri yo‘ldan adashgan va o‘z xatti-harakatlariga chin dildan pushaymon bo‘lgan fuqarolarga ma’naviy-axloqiy burchlarini ado etish uchun jamiyat va o‘z oilalariga qaytish imkoniyati beriladi. Diniy ekstremistik oqimlarga aloqador

shaxslarni rehabilitatsiya qilishning muhim qadamlaridan biri, bu ularga nisbatan avf etish aktlarini qo'llash bo'ldi.

2020 yil 3-4 mart kunlari Samarcand shahrida "Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil etildi. Ushbu tadborda 15 mamlakatdan 55 nafar taniqli ulamolar, muftiyalar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi. Konferensiya yalpi majlisida 11 ta, sho'ba yig'ilishlarida 32 ta ma'ruza tinglandi. Ma'ruzalarda Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiylikning mafkuraviy asosi, moturidiya kalom matabiga oid yangi manbalar, ushbu ta'limotning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikrlar bildirildi. Diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «jaholatga qarshi — ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida: jamiyatda «jaholatga qarshi — ma'rifat» degan ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlar ifodasi ekanligini targ'ib etish maqsadida barcha davlat va nodavlat notijorat tashkilotlariga bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda ko'maklashadi;

Mamlakatdagi diniy-ijtimoiy jarayonlar hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalarini o'rganish natijalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, targ'ibot va tashviqot tadbirlarini o'tkazish choralarini ko'radi; Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomashtirish, xotin-qizlarning jamiyatdagagi o'rni va nufuzini mustahkamlash, ular orasida ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish maqsadida respublika, viloyat, tuman (shahar), mahalla darajasida davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining targ'ibot guruhlari faoliyatini tashkil etish orqali o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish amaliyoti joriy etiladi; Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilmfani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajodolaramizning bebahos merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqe'a-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Qur'on karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug'vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o'zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga

etkazish Hadis ilmi matabining asosiy vazifalari etib belgilangani inobatga olingan.

Nazorat savollar:

1. O‘zbekistonda dinshunoslik fani qachondan ta’lim jarayoniga kiritildi?
2. Talabalarga Dinshunoslik fanini o‘vitishda nimalarga e’tibor berish kerak?
3. O‘zbek tilida dinshunoslikka oid kitoblarnidan qaysilarni bilasiz?
4. O‘zbekistonda dinshunoslikning istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Jalilov. Dinshunoslik . T., O‘zbekiston 2022.
2. Islam na territorii byivshey Rossiyanskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiey S.M.Prozorova. Vyipuski 1-3. M., 1998-2001.
3. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
4. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, № 2 (1992), B. 3-12.
5. Hasanov A.A. «Qadimgi Arabiston va ilk islom, johiliya asri». «Toshkent islom universiteti», 2001 yil.
6. «Islom ziyosi o‘zbegim siyomsida». «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001y.
7. Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik: ma’ruzalar matni. T.: 2000y.
8. Qur’oni karim.-T.: «Cho‘lpon», 1993 yil.
9. Husniddinov Z.M. «Islom: yo‘nalishlar, oqimlar, mazhablar». «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Dirlarni o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar madaniyatlararo dialog.

1. Dinga berilgan ta’riflar.
2. Jahonda dirlarni o‘rganish tajribasi.
3. Dirlarni o‘rganishda zamonaviy qarashlar.

Ishdan maqsad: yangi tushunchalarni tahlilini amalga oshirish orqali mustaqil izohlashga va ularni chuqur angashga erishish.

Masalaning qo‘yilishi: amaliy mashg‘ulotda “din” tushunchasini mustahkamlashga qaratilgan topshiriq sifatida aynan shu mavzuda chop etilgan materiallar tahlili amalga oshiriladi.

Ishni bajarish uchun namuna: dinga berilgan ta’riflarning aqliy hujum uslubida muhokamasi tashkil etiladi.

Nazorat savollari:

- 1) “Din” deganda nimani tushunasiz?
- 2) Dunyoda (muayyan mamlakat ko‘rsatiladi) dirlarni o‘rganish tajribasi qanday yo‘lga qo‘yilgan?
- 3) Dirlarni o‘rganishda qanday zamonaviy yondashuvlarni bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jalilov B. Dinshunoslik. T., O‘zbekiston, 2022.
2. Yablokov I.N. Religiya: siшnost i yavleniya. M., 1982.
3. Yablokov I.N. Sotsiologiya religii. M., 1979.
4. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-e izd., ispr. i dop. M., 1986.
5. Samygina S.I., Nechipurenko V.N., Polonskaya I.N. Religiovedenie: sotsiologiya i sotsiologiya religii. Rostov-na-Donu, 1996.
6. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. M., 1996; 2-e izdanie, ispravленное и дополненное. M., 1999.
7. Lukashov V.A., Omurova T.O., Trofimova Z.P. Religiovedenie. M., 2000.
8. Islam na territorii bylyshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiey S.M. Prozorova. Vyipuski 1-3. M., 1998-2001.
9. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
10. Readon B. Bag‘rikenglik: tinchlik sari olg‘a qadam. T., 2002.

Sharq allomalarining dunyo dirlarini o‘rganishga qo‘shgan hissalari.

1. Sharq allomalarining asarlarida dirlarni o‘rganish masalasi.
2. Dirlarni o‘rganishning sharqona uslubi. Bugungi kunda musulmon mamlakatlarida dinshunoslik fanining o‘qitilishi.
3. Abu Rayhon Beruniy asarlarining dirlarni o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati

Ishdan maqsad: nazariy olingan bilimlarni amaliyotda qay tarzda aks etishini

misollar orqali o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: Amaliy mashg‘ulot davomida Sharqda dinshunoslik fanining rivoji, Sharq mutaqakkirlarining fanga qo‘shgan hissalari tahlilini amalga oshirish topshirig‘i beriladi.

Ishni bajarish uchun namuna: Olingan ma’lumotlar “bumerang” uslubida muhokama etiladi.

Nazorat savollari:

- 1) Sharqda danshunoslikni o‘qitish va tadqiq etish qanday yo‘lga qo‘yilgan?
- 2) Qur‘on va hadislarda dirlarni o‘rganishga oid qanday ma’lumotlar bor?
- 3) Sharqda dirlarni o‘rganishning o‘ziga xos uslubi nimalarda aks etgan?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jalilov B. Dinshunoslik. T., O‘zbekiston, 2022.
2. Yablokov I.N. Religiya: siyosat i yavleniya. M., 1982.
3. Yablokov I.N. Sotsiologiya religii. M., 1979.
4. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-e izd., ispr. i dop. M., 1986.
5. Samygina S.I., Nechipurenko V.N., Polonskaya I.N. Religiovedenie: sotsiologiya i sotsiologiya religii. Rostov-na-Donu, 1996.
6. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennoye religii. M., 1996; 2-e izdanie, ispravленное и дополненное. M., 1999.
7. Lukashov V.A., Omurova T.O., Trofimova Z.P. Religiovedenie. M., 2000.
8. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiey S.M. Prozorova. Vyipuski 1-3. M., 1998-2001.
9. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
10. Readon B. Bag‘rikenglik: tinchlik sari olg‘a qadam. T., 2002.

G‘arb dinshunoslik maktablari: antropologiya, sotsiologiya yo‘nalishlari

1. G‘arbda dirlar tarixini o‘rganish maktablari.
2. Dirlarni tasnif etishning g‘arbona usullari
3. Zamonaviy G‘arb adabiyotlarining tahlili.

.

Ishdan maqsad: nazariy olingan bilimlar asosida amaliyotda xar bir futurologik konsepsiya FSMU metodi orqali tahlil etish.

Masalaning qo‘yilishi: guruhlarga bo‘lingan xolda, G‘arb dinshunoslik maktablarining faoliyati va dirlarni o‘rganishdagi yondashuvlari tahlil etiladi. Guruhdagi faoliyat natijasi sifatida xar bir futurologik konsepsiya FSMU metodi orqali tahlil etiladi, misollar bilan boyitiladi, va yakuniy loyiha sifatida taqdim etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna: Antropologiya maktabiga nisbatan

munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



Nazorat savollari:

- 1) G‘arbning dinshunoslik maktablarini sanang!
- 2) G‘arb dinshunosligining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
- 3) Rossiyada dinshunoslik qanday rivoj topdi?
- 4) Cherkov otalari deganda kimlarni tushuniladi?

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 11.Jalilov B. Dinshunoslik. T., O‘zbekiston, 2022.
- 12.Yablokov I.N. Religiya: suznost i yavleniya. M., 1982.
- 13.Yablokov I.N. Sotsiologiya religii. M., 1979.
- 14.Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira. 4-e izd., ispr. i dop. M., 1986.
- 15.Samylgin S.I., Nechipurenko V.N., Polonskaya I.N. Religiovedenie: sotsiologiya i sotsiologiya religii. Rostov-na-Donu, 1996.
- 16.Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. M., 1996; 2-e izdanie, ispravленное и дополненное. M., 1999.
- 17.Lukashov V.A., Omurova T.O., Trofimova Z.P. Religiovedenie. M., 2000.
- 18.Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiey S.M.Prozorova. Vyipuski 1-3. M., 1998-2001.
- 19.Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
- 20.Readon B. Bag‘rikenglik: tinchlik sari olg‘a qadam. T., 2002.

4-mavzu. O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligi.

1. O‘zbekistonda dinshunoslik fanining yangi taraqqiyoti.
2. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida dinshunoslik, dinlar tarixi fanlarini o‘qitilishining joriy etilishi.
3. O‘zbek tilidagi adabiyotlar tahlili.

Ishdan maqsad: nazariy olingan bilimlar asosida amaliyatda misolarni tahlil etish.

Masalaning qo‘yilishi: amaliy mashg‘ulotda Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda dinshunoslikni o‘qitishning joriy etilish, sohaga oid nashrlar tahlil etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna: har bir guruh O‘zbekistondagi dinlar tarixini o‘qitishi tajribasi bo‘yicha taqdimot taylorlaydi.

Nazorat savollari:

- 1) O‘zbekistonda dinshunoslik yo‘nalishi qachon va qaysi oliv ta’lim muassasasida ochilgan?
- 2) Dinshunoslikka oid o‘zbek tilida nashr etilgan qanday kitoblarni bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jalilov B. Dinshunoslik. T., O‘zbekiston, 2022.
2. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiey S.M.Pozorova. Vyipuski 1-3. M., 1998-2001.
3. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiysi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.

V. KEYSALAR BANKI

Mini-keys 1.

«*Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan dinlarning manbalarini qiyosiy tahlil etish»*

Markaziy Osiyoda azaldan ko‘plab dinlar mavjud bo‘lgan. Bir necha asrlar davomida ularning vakillari bu tinch-totuv umr kechirganlar. Bizlarga mazkur dinlarning yozma, og‘zaki va me’moriy manblari etib kelgan. Ulardan yurtimizdagi yoshlarni odob-axloq qoidalariga rioya etadigan, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiya etish uchun foydalaniladi.

Jamoatchilik orasida va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etish va unda kerakli samarani olish uchun mazkur dinlarning manbalaridan nimalarni misol tariqasida keltirar edingiz?

Mini-keys 2.

«*Turli dinlarga mansub talabalar o‘rtasida diniymasalada nizo, tushunmovchilik yuzaga keldi. Sizni uni bartaraf etish uchun taklif etishdi »*

Tortishib qolgan talabalarning biri musulmon, ikkinchisi xristian. Ularning har biri o‘z dinini haq deb biladi. O‘zbekiston qonunchiligidagi bayon etilgan vijdon erkinligi to‘g‘risidagi masalardan xabarsiz. Shuningdek o‘z fikrlarini diniy nuqtai nazardan ham jo‘yali asoslab bera olganlari yo‘q. Tortishuv hamon davrm etmoqda.

Hakam sifatida so‘zni nimadan boshlar edingizu nima bilan xulosa qilgan bo‘lardingiz?

VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanib, tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me’yoriy xujjatlardan, o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar vositasida ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- amaliy mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining ilmiy uslubi
2. Diniy manbalar (Bibliya va Qur’oni karim) mavzularining qiyosiy tahlili.
3. Teologiya sohasining o‘ziga xos jihatlari.
4. Ibtidoiy tasavvurlarning zamonaviy dinlarda aks etishi.

5. Diniy ekstremistik tashkilotlarning Qur'oni karim oyatlarini talqin etish uslublari.
6. O'zbekistondagi dinlar haqida ma'lumot beruvchi internet saytlar tasnifi.
7. Diniy bag'rikenglikni targ'ib etishda milliy qadriyatlarning o'rni.

VII. GLOSSARY

Avtokefal cherkov (yunoncha – “o‘zini o‘zi boshqaruvchi”). Xristianlikning sharqiy tarmog‘i bo‘lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 16 avtokefal cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo‘lib, unga 19 ming cherkov va 127 eparxiya birlashgan. Bularidan 150 dan ortiq cherkov va 5 eparxiya chet elda faoliyat olib boradi. Ma’lum bir tashkilot «avtokefal» makomini olishi uchun miro moyini mustakil ravishda tayyorlay olish imkoniyatiga ega bulishi kerak.

Avtonom pravoslav cherkovlari (yunoncha “mustaqil”) – biror bir avtokefal cherkovdan ichki tartib qoidalarni mustaqil bajarish huquqini olgan cherkov. Avtonom cherkov rahbari avtokefal cherkov patriarxi tomonidan tasdiqlanadi.

Mikado -Sintoizm ta’limotiga ko‘ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamaga* ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e’tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon o‘lganidan keyin o‘zining ham o‘sha *kamalardan* biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoizmda «Oliy ilohiyot» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig‘inishga o‘rgatadi. Sintoizmda umumiylayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo‘q. Unda bir umumiylayotiy qoida – «Umumiylayotiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariiga mos harakat qil» g‘oyasi mavjud. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan bilganlar, shu tufayli jamiyatdagi qoida va talablarga rioya qilish tabiiy. Agar shunday bo‘lmasa, ular o‘rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo‘lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma’lumotlar «Kodziki» («Qadimiy yozuvlar») va «Nixongi» («Yaponiya annallari») manbalarida uchraydi.

Kodziki – bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g‘oyasi.

Yapon yozuvlarida ta’kidlanishicha, olamda avval tartibsizlik (xaos) hukmronlik qilgan. Undan so‘ng er osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo‘lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Izdanami, erkak jinsi timsolida uning eri Izdanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh ilohiyoti Amaterasu, erkak jinsidagi oy ilohiyoti Sukiyomi, shamol va suv ilohiyoti Susanoo tug‘ildi. Amaterasu g‘alaba qilib osmonda qoldi, Susanoo esa erdag‘i Idzumo mamlakatiga quvildi. Susanooning o‘g‘li Okuninusi Idzumo hokimi bo‘ldi. Amaterasu bu holatga chidab tura olmay, Okuninusi hokimiyatini o‘z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qildi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qildi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko‘zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va *yashma* (sadoqat va fidoiylik timsoli) topshirildi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqdi. Tinno unvoni «oliv

hukmdor» ma’nosini anglatadi. Bu so‘z boshqa tillarda imperator ma’nosini bildiradi. Dzimmutenno *mikado* – yapon imperatorlari sulolasining birinchi vakili, Yaponiyaning birinchi afsonaviy imperatori hisoblanadi. Ko‘zgu, qilich, *yashma* o‘sha qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo‘lib qolgan.

Imperator-*mikado* yaponlar tasavvurida o‘zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon-qardosh bo‘lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig‘idir. Hatto Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan *syogunlar* ham o‘zlarini *mikado* namoyandalari deb ataganlar. Sintoizm ta’limotida yoritilgan *mikado* g‘oyasining boshqaruvchilik xususiyati kuchi hozirgi kunda anchagina zaiflashgan bo‘lsa-da, yaponlar tasavvuridan o‘chib ketmagan.

Hozirgi kunda yaponlar tashqi ko‘rinishdan bu ta’limotga bir oz e’tiborsiz ko‘rinsalar-da, chin dildan unga ongli ravishda ehtirom bilan yondashadilar. Hozirgacha sintoizm ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o‘tkazilib turadi.

Sintoizm yaponlarga mavjudot olami, tabiat bilan o‘zaro munosabatlarga o‘ziga xos qarashni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo‘ladi.

Birinchi tamoyil mohiyatiga ko‘ra, butun borliq dunyoning o‘z-o‘zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o‘z-o‘zidan vujudga kelgan bo‘lib, yaxshi va mukammaldir. Sintoizm ta’limotiga ko‘ra, olamni boshqaruvchi kuch xristian yoki musulmonlar e’tiqodidagidek qandaydir oliy mavjudotda emas, balki olamning o‘zida mujassamdir

Milliy dinlar – biror bir millatga xos bo‘lgan dinlar tushuniladi. Biror dindagi marosimlar va ibodatlarning o‘ta og‘irligi o‘sha dinning jahon diniga aylana olmasdan, milliy din maqomida qolishiga sabab bo‘ladi. Yahudiylilik, hinduiylilik, sinkxiylik, konfutsiychilik, sintoiylik kabi dinlar milliy dinlar hisoblanadi.

Mitropolit – (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylilik unvoni¹⁴.

Episkop yoki arxiierey ruhoniylikning eng oliy unvoni hisoblanadi. Episkoplarni barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma’lum bir shahar, viloyat cherkovi yoki eparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq episkoplarni arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdir

Monokonfessional davlat – birgina konfessiya (din, e’tiqod) hukmron bo‘lgan davlat. Bunga Eron, Saudiya Arabiston, Pokiston kabilarni misol keltirish mumkin.

O‘zbekiston polikonfessional davlat hisoblanadi. Chunki o‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiya mavjuddir.

Monoteizm – (qad. yunon. “mono” – “yagona”, “teo” – “ilohiyot”) yakkaxudolik Qadimgi Arabiston jamiyatida “haniflar” nomi bilan ma’lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda “noma’lum monoteizm” deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig‘inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular

bir erda muqim turmay, o'lka bo'ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma'lum mavqega ega bo'ldilar

Moshiax, meshiax – yahudiylikdagi xalaskorning kelishi haqidagi ta'limot. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir halaskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyonи isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun yahudiylarni Sinion atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

Muqaddas ruh – xristianlikdagi Xudoning uch ko'rinishidan biri¹⁵.

Mukaddas rux dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam xam u orkali Isoga xomilador bulgan.

Xristianlik Ota-Xudo, o'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch yuzlik Xudo (Trinity) to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin erlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – *ivritdagи meshiax* so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, nazroniya deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom nasroniya shaklini olgan.

"MUQADDAS TAXT"— Rim Papasi va katolik cherkovini boshkarishda Papaga yordam beradigan Rim kuriyasi xamda Vatikanning nomi.

Muqaddas uchlik – xristianlikda yagona Xudoning muqaddas uchlik (troitsa) shaklida namoyon bo'lishi. Bu degani – yagona Xudo uch qiyofalidir. Bular – Ota Xudo, O'g'il Xudo va muqaddas Ruh Xudo. Ota Xudo tug'ilish yo'li bilan paydo bo'limgan. Uni hech kim yaratgan emas. Muqaddas Ruh Xudo Ota Xudodan paydo bo'lgan. O'g'il Xudo (Iisus Xristos) esa inson bolasidan tug'ilgan. Shuning uchun u ham ilohiy, ham insoniy tabiatga ega.

Nazaret – Falastindagi Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i. Xristianlikni «Nazaret» bilan bog'lab, nazroniya deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom *nasroniya* shaklini olgan.

Nasroniy – Falastindagi Iso masehning to'g'ilgan qishlog'i bo'lmish Nazaretning keyinchalik buzilgan shakli. Hozirda bu atama har bir xristianga nisbatan ishlataladi. Qur'oni Karimda ham xristianlarga nisbatan nasroniy atamasini ishlataladi.

Neobuddizm ("neo" – "yangi") – XIX-XX asrlarda buddaviylikda paydo

bo‘lgan yo‘nalish. Turli davlatlarda turlicha shakl kasb etgan. Neobuddizm ta’limotida milliy ozodlik harakatlari doirasida budda rohiblarining siyosatga aralashishiga ruxsat berilgan.

NIKOH - (arab - uylanish) - erkak va ayol turmush qurishining islomga xos diniy shakli. Hozirgi vaqtida N. 2 xil — dunyoviy va diniy mazmunga ega. Dunyoviy mazmunda N. turmush qurayotgan erkak va ayolning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiladigan organlar (FHDYO) da ro‘yxatdan o‘tishini anglatadi. O‘zbekistonda faqat shunday N. qonuniy deb tan olinadi O‘zbekistondagi qonunchilik erkakka faqat bir ayol bilan nikohlanishga ijozat beradi. Diniy mazmunda N. imom xatibning islom an’analari asosidagi nikoh xutbasini o‘qib, erkak va ayolning turmush qurishini shariat asosida qonunlashtirishini anglatadi. Shariat qonunlarida erkakka bir vaqtning o‘zida 4 xotinni o‘z N.iga olishga ijozat berilishi (Qur’oni Karimning 4- sura 3- oyati asosida), shuningdek, N. qilishda qiz uchun to‘lanadigan mahrning miqdorini aniqlash kabilar nikohning shariatdagi ko‘rinishlaridir.

Nikohga oid sirli marosim

(braka tainstvo) - katolik va pravoslav cherkovlaridagi 7 sirli marosim (tainstva) dan biri.

Cherkov nikohidan o‘tish vaqtida amalga oshiriladi. U xristianlikda boshqa marosimlardan keyinroq joriy qilingan. Bu marosim 16 - asrda paydo bo‘lgan. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, bulajak er-xotinlar mehrob oldida bir-birlariga sodiqlik haqida va’da berar ekanlar, bu marosimni o‘tkazish orqali “bolalarning eson-omon tug‘ilishi va xristian tarbiyasi ko‘rishidan iborat sof yakdilona xudoning marhamati” ga erishar emishlar. Shu tariqa go‘yo xudoning o‘zi odamlarning nikoh ittifoqini himoya qilar emish. Cherkovning ta’kidlashicha, nikohda asosiy narsa yuridik yoki iqtisodiy element emas, balki axloqiy element bo‘lib, u diniy element b-n aynan bir narsa emish. Shuning uchun ham nikohga oid sirli marosimni o‘tkazmay turib, chinakam axloqiy, oilaviy munosabatlarning bo‘lishi mumkin emas emish. Aslida esa cherkov hamisha nikohning axloqiy tomoni to‘g‘risida juda kam qayg‘urgan. U teng bo‘lman, moddiy manfaatlarni ko‘zlab amalga oshiriladigan nikohlarni muqaddaslashtirgan. Hozirgi vaqtida ham cherkov nikohga oid sirli marosimdan dindorlarning oilalariga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida foydalanadi

Nirvana – (sanskr. «so‘lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliv maqomga erishish¹⁶. Nirvanaga erishish xar bir buddaviyning asosiy maksadi xisoblanadi. Jaynizm ta’limotining asosiy g‘oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo‘lgan *karmalar* va *nirvana* haqidagi ta’limot hisoblanadi. *Nirvanaga* erishgan inson qayta tug‘ilishdan ozod bo‘ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlargina erishishi mumkin, xolos

Nuh kemasi – islomga ko‘ra, Allohning buyrug‘i bilan Nuh a.s yasagan kema. Nuh a.s barcha jonvorlardan bir juftdan olib ushbu kemaga joylashtirganlar. Keyin Alloh osmondan juda ko‘p yomg‘ir yog‘dirdi, ernen hamma tomonidan ham suv

chiqartirdi. Osmon suvi bilan er suvi qo'shilib ulkan to'fon paydo bo'ldi. To'fonda barcha Nuh a.s ning da'vatiga ergashmagan kofirlar halok bo'ldi, faqat kemadagilar sog' qoldilar. To'fon pasaygandan keyin kema Judiy tog'i ustida to'xtadi. Kema tog' tepasiga kelib to'xtab, er to'fon suvini yutib bitirgach, Alloh Nuh a.s ni kemadan erga tushishga buyurdi. Nuh a.s va unga iymon keltirgan kishilar kemadan tushishdi.

Atarxurra (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi Zardushtiylikda olov Axuramazdaning ramzi xisoblanadi. Ayniksa ibodatxonalarda yokilgan olov kattik uluglanadi. Shuning uchun koxinlar olovni yangilash, yokish kabi ishlarda yuzlariga va kollariga maxsus ok nikob tutib oladilar. Bu bilan mukaddas olov ifloslanishining oldi olinadi.

Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej») da yoqildi», - deyiladi

Papa, Rim Papasi – katolik cherkovining boshlig'i, Isoning noibi va uning 12 havoriyalaridan eng obro'lisi bo'lmish apostol Petr (Butrus) ning vorisi hisoblanadi. Diniy hayotda gunohsiz deb hisoblanadigan, yashirin ovoz berish yo'li bilan kardinallar kollegiyasi saylaydigan Papaning hokimiyati jahon sobolari hokimiyatidan ustun turadi. Katolik cherkovi soborlari (episkoplar yig'ini) cherkovga oid murakkab masalalarni hal etish uchun Papa tomonidan chaqiriladi. Papa cherkov davlati – Vatikanning cheksiz vakolatlarga ega bo'lgan hokimidir.

Papaning begunohligi aqidasi - pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalihsida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi etti asrorni tan oladi, biroq bu asrорlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, *pricheshenie* (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy(miryane)larga non va vino bilan, shuningdek, faqat non bilan amalga oshiriladi. CHo'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvg'a cho'ktirilmaydi.

PASXA – (yunoncha, ivritcha – “yonidan o'tish”) - xochga mixlangan Iso Masihning qayta tirlishi xotirasiga bag'ishlab o'tkazilaigan xristianlikdagi yirik bayram

Pasxa – Isoning o'lganidan so'ng qayta tirliganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach, Pasxa yangicha tus olgan. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishтирish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirdi. Bu soborda «e'tiqod timsoli»ning (Credo) dastlabki tahriri

qabul qilingan, *Pasxani* bayram qilish vaqtি belgilangan.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (**Pessah; Pasxa**) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy yahudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va sharobdan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy bo'lмаган go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganida, ular o'z uylarining peshtoqini qon bilan bo'yab o'zlarining yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar Pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – *matsa* tanovul etadilar. Matsani tanovul qilish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadilar. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendari bo'yicha *nison* oyining 14 kuni nishonlanadi (bu sana aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi).

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar Shabuot yoki Shevuot bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari bo'yicha *sivona* oyining 6- va 7-kunlari nishonlanadi

Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy-Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o'zgarib turadi.

Pravoslav (ortodoks) oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalişidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandı. Bu oqim, asosan, Sharqiy Evropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobi asoslari Vizantiyada shakllandı, chunki bu yo'naliş u erdag'i hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar, IV – VIII asrlardagi etti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 16 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 eparxiya birlashgan. Bularidan 150 dan ortiq cherkov va 5 eparxiya chet elda faoliyat olib boradi.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

Cho'qintirish sirli hodisasi (*tainstvo*). Bunda dindor o'z tanasini uch marta suvg'a botirishi, Xudo-Otani, o'g'ilni va Muqaddas Ruhni chaqirishi bilan ruhiy tug'ilishni kasb etadi.

Badanga miro surkash ham sirli bo'lib, bunda dindorga Muqaddas Ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

Poklanishning sirliligi. Unda dindor non va vino ko‘rinishida o‘z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

Nadomatning sirliligi shundaki, dindor o‘z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

Ruhoniyligning sirliligi u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko‘tarish uchun episkop qo‘lini o‘sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo‘yishi) orqali amalga oshiriladi.

Nikohning sirliligi. Bunda kelin-kuyov turmush qurish, farzand ko‘rish va uni tarbiyalashga oq fotiha oladilar.

Badanni eley bilan ishqalash sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxadan so‘ng pravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular:

Bibi Maryamning tug‘ilishi (*Rojdestvo Bojey materi*);

Isoning xochini tiklash (*Vozdvijenie kresta Gospodnya*);

Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsy);

Isoning tug‘ilishi (Rojdestvo Xristovo);

Isoni cho‘qintirish (Kreščenie Gospodnya);

Olkishlash (Sretenie);

Xushxabarning nozil bo‘lishi (Blagovещание);

Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospodnya v Ierusalim) – pasxa postidan 6 hafta keyingi yakshanba;

Isoning qayta tirilishi (Voskresene Xristovo) – Pasxa, bahorgi kecha va kunduz tengligi va oy to‘lishgan birinchi yakshanba;

Isoning osmonga ko‘tarilishi (Voznesenie Iisusa) – Pasxadan 39 kun keyin;

Muqaddas Ruhning tushishi (Soshestvie Svyatogo duxa – Troitsin Den);

Iso qiyofasining o‘zgarishi (Preobrajenie) – 6 avgustda.

Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1 sentyabrdan boshlanadi. 8 sentyabr kuni «Rojdestvo Bojey materi» bayrami o‘tkaziladi. 12 sentyabr kuni «Vozdvijenie kresta Gospodnya» bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliy davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag‘ishlanadi. 21 noyabr kuni «Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsy» bayrami o‘tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoniy tomonidan Qadimiy Ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag‘ishlanadi. Ibodatxonaga kirish bayramidan bir hafta oldin, yani 15 noyabrda Rojdestvo posti boshlanadi. Va nihoyat, 20 dekabrda Rojdestvo bayrami kiradi va 31 yanvargacha davom etadi.

Isoning cho‘qintirilishi (Kreščenie Gospodnya) bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yahyo tomonidan cho‘qintirilishiga bag‘ishlanadi.

Navbatdagi yana bir yirik bayram Sretenie (olkishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug‘ilgach, avliyo Simeon tomonidan uning kutib olinishiga bag‘ishlanadi.

Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa – Isoning

o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxanining tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach, Pasxa yangicha tus olgan.

Yuqorida sanab o'tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgarlik sifatida turli muddatli postlar o'tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslavining ko'p kunlik postlari (ro'zalari) bo'lib, ular to'rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug'ilgan kundan oldin bo'ladigan postlar. Pasxa oldidan bo'ladigan «Velikiy post» 40 kunga cho'ziladi. Ushbu post davrida – eski hisob bo'yicha 25 martda «Blagoveshenie» bayrami o'tkaziladi. Post boshlanishidan olti hafta o'tgach, yakshanba kuni xristianlikning o'n ikkinchi bayrami yoki 8-bayram «Xudoning Quddusga kirishi» nishonlanadi.

Ra – Qadimgi Misr dinida quyosh Xudo. Fir'avnlarning 5- sulolalari o'zlarini Raning o'g'li deb hisoblashgan. Podshohlarni Xudoning o'g'li deb bilish milodning bshlarigacha davom etgan. Mazkur 5- sulola Rani Misrning oliv Xudosiga aylantirgan. 11 – 12 – sulolalar davrida juda ham mashhur bo'lmagan Amon xodosi umummisr xudolarining asosiysiga aylandi va oldingi oliv xudo Ra bilan birlashib, Amon - Ra shaklini oldi.

Ravvin – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi

Milodning I – IV asrlarida yahudiy davlati boshdan kechirgan iqtisodiy va ijtimoiy tanazzul xalq orasida ruhoniylar obro'yining benihoya oshib ketishiga sabab bo'ldi. Ular o'zlarini *ravvinlar* (*hazrat, janob*) deb atadilar. 66-70 yillardagi qo'zg'olonda Isroil xalqini halokatdan qutqarib qolgan Ioann ben Zakkai nomli shaxs yashirinchcha O'rta er dengizi bo'yida YAvne (Yavneh) degan joyda diniy maktab (akademiya) tashkil qildi. Bu maktab *ravvinlar* ta'limotini tarqatish markazi bo'lib qoldi. Natijada Lidda, Sepforis, Ush, Tiveriada degan joylarda shunga o'xshash maktab – «akademiya»lar tashkil etildi. Bu akademiyalarning rahbarlari «*nasi*» (knyaz) yoki *patriarx* deb ataldi. Ular bu maktablarga rahbarlik qilish bilan bir qatorda o'z hududlarida fuqarolik ishlari bo'yicha hakamlik vazifalarini bajardilar hamda jamoaning ishlarida rahbar, barcha yahudiy larning diniy rahnamosi hisoblanar edilar

Reinkarnatsiya - (fransuzcha - qayta gavdalanish) - xudolar, ruhlar, avliyolar va boshqalar odamlar orasida inson, hayvon, o'simlik, hatto jonsiz predmet qiyofasida paydo bo'lish qobiliyatiga ega degan tasavvurga ishontirishni ifodalovchi iboradir.

Rosh-Ashona – yahudiylikdagi yangi yil bayrami¹⁷. Kuzda yahudiy kalendaridagi *tishri* oyining 1- va 2-kunlari (sentyabr oxiri-oktyabr boshlari) yangi yil bayrami – Rosh-Ashona nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbanlik qilingan qo'chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: *diakon, ruhoniylar* (kyure,

pater, kendz), episkop. Episkopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiyo ovozning uchdan ikki qismi qo'shuv 1-ovoz (yashirin ovoz berish) yo'li bilan II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu birinchi navbatda ibodat an'analariga tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Ruh (arabcha – jon, ko'pligi arvoh) – diniy tushunchaga ko'ra, kishi hayotida u bilan birga, vafotidan keyin esa, tanadan chiqib abadiy qoladigan ko'zga ko'rinas narsa. Hadisi sharifda aytilishicha, ona qornidagi chaqaloq to'rt oylik bo'lgan kuni unga ruh ato etiladi va umri davomida shu ruh bilan birga bo'ladi. Ba'zi ulamolar ruh – bu qon desa, boshqalari nafas deb hisoblaydi. Ayrimlar esa ruhni latif va nafis havodan iborat deb, uni moddiy narsalar safiga kiritadi. Qur'oni Karimga ko'ra, Alloh odamzotni yaratmasdan oldinroq dastlab qiyomatga qadar keladigan odamlarning ruhlarini paydo qilgan. Islomda ruhning mohiyati haqida bahs yuritish man etiladi. Qur'oni Karimning "Isro" surasida (85- oyat) ruh Allohnинг ilmiga havola etiladigan sir ekani, ruh to'g'risida odamlar juda oz ma'lumotga ega bo'lishlari ta'kidlangan.

Ruhoniylilik Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo'linadi: 1) diakon, 2) ruhoniyl (svyaщennik), 3) episkop.

Diakon (grek. "xizmatchi") ruhoniyliking eng quyi tabaqasi hisoblanadi. U mustaqil hech qanday ibodatni boshqara olmaydi, balki faqatgina ruhoniyl yoki episkopga ibodat marosimini o'tkazishda yordam bera oladi, xolos. Uni ruhoniylilik sirliligiga (tainstvo) episkop qabul qiladi. Katta diakonlar protodiakon, rohib diakonlar ierodiakon, katta ierodiakonlar arxidiakon deb ataladi.

Ruhoniyl (svyaщennik) yoki ierey pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. U boshqalarni ruhoniylorra bag'ishlash va cherkov suvini muqaddaslashtirishdan boshqa barcha sirli marosimlarni bajara oladi. Kichik ruhoniylar ierey, katta ruhoniylar protoierey va eng katta ruhoniylar protopresviter deb nomlanadi.

Episkop yoki arxierey ruhoniyliking eng oliy unvoni hisoblanadi. Episkoplari barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma'lum bir shahar, viloyat cherkovi yoki eparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq episkoplari arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdır.

Ruhoniylorra qabul qilish (rukopoljenie) – xristianlikdagi 7 sirli marosimdan biri bo'lib, ruhoniylilik martabasiga ko'tarilish bilan bog'liqdir. Diniy ta'limotga ko'ra, ruhoniyl bo'ladigan shaxsning boshiga episkop qo'l tekkizgandan keyin, go'yo u "muqaddas ruh" ning alohida marhamati bilan xudo va odamlar o'rtasida vositachilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Samoviy dinlar – payg'ambarlari xudo tarafidan yuborilgan bo'lib, o'sha payg'ambarlarga ilohiy kitoblar nozil qilingan dinlar. Ularning barchasida yakkaxudolik e'tiqodi targ'ib qilingan. Islomda payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Jabroil farishta orqali Qur'oni Karim nozil qilingan. Xristianlikda Iso a.s ga ham Jabroil (Gavriil) farishta orqali Injil kitobi nozil

qilingan. Yahudiylikda Muso a.s ga Tur tog‘ida Alloh taolo bilan gaplashish orqali Tavrot kitobi berilgan.

Sansara – buddizmda qayta tug‘ilish zanjiri hisoblanadi. Ushbu atama buddizmda nirvananing aksi hisoblanadi. Yomon odamlarning ruhlari qayta – qayta tug‘ilishlaridan so‘ng er ostiga tushib ketadi. Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, o‘lim insonni hayot azob – uqubatlaridan xalos eta olmaydi. Chunki, o‘limdan keyin ham insonni qayta tug‘ilish kutadi. Mana shunday qayta tug‘ilish (sansara) ning azob uqubatlaridan faqatgina arxat (oliy kamolotga etgan) holatiga erishgan kishilargina xalos bo‘lishlari mumkin. Arxat holatiga erishish va undan nirvanaga o‘tishning yagona yo‘li najotning oliyjanob sakkizlik yo‘liga ergashishdir.

Satanistlar – “Shayton malaylari”. 1960- yillarning o‘rtalarida Vietnamdagagi urushga qarshi harakat shiori ostida shakillangan yoshlar oqimi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, shaytonning Xudodan farqi uning insonga bu dunyoda yaxshiga qarshi yomon borligini bildiruvchi va Er yuzida fahsh, alkogol, narkotik kabi dunyo lazzatlari borligini o‘rgatuvchi ekanidir.

Rossiyada bu oqim vakillari qabr va muqaddas sanalgan obidalarni buzish kabi turli nomaqbul ishlarni amalga oshirganlar.

O‘zbekistonda satanistlar faoliyati aniq holatlarda kuzatilmagan. Ammo, ayrim hollarda “satanistlar” kabi kiyinib olgan 5 – 6 kishidan iborat yoshlar guruhi fuqarolar tarafidan ko‘zatilgani aniqlangan.

Sehrgarlik – odam, hayvonot va tabiatga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta’sir o‘tkazish maqsadida bajariladigan xatti – harakatlar va urf – odatlar.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nuxxalari saqlanadigan sandiq va ravvin uchun minbar qo‘yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qiladilar. Sinagogada ibodat xor shaklida olib boriladi¹⁸. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng yahudiyarning milliy, diniy erkinliklariga yo‘l ochib berildi. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida *buxorolik* hamda *ashkenazi* (evropalik) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek, sinagogalari faoliyat ko‘rsatib kelmokda.

Yahudiy jamoalari mamlakatning uchta ma’muriy hududida o‘zining ibodatxonalariga ega bo‘lib, jami sakkizta sinagoga ro‘yxatdan o‘tgan.

Sonlar – yahudiylikdagi “Musoning 5 kitobi” (Tora) dan to‘rtinchisi hisoblanadi. “Sonlar” kitobida qonunchilik va yahudiyarning Misrdan olib chiqib ketilgan davrdan to Falastinni bosib olgunlariga qadar bo‘lgan tarixiga bag‘ishlangan.

Tabu – totemistik tasavvurlar mavjud bo‘lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko‘ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og‘ir kasallik yoki o‘lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma’lum bir buyumga tegmaslik, ma’lum so‘zni aytmaslik, ma’lum hayvonlarning go‘shtini emaslik kabilardan iborat bo‘lishi mumkin¹⁹.

Tabuning eng mukammal sistemasi Polineziyada bo‘lgan. Tabu ob’ektlari -

buyumlar, suvlar, hayvonlar, odamlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha tabu moddiy buyumlarga taalluqli bo‘ladi. Jamiyat tarakqiy etib, sinfiy tabaqalanish kuchaya borgan sari tabu ijtimoiy tengsizlikni muqaddaslashtira boshlgan. Tabuning bir qismi odat huquqi normasiga aylangan, ko‘pchiligi dinga takiqlar sifatida kiritilib, uni buzish — gunoh va ilohiy jazoga loyik deb hisoblana boshlagan.

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘ limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘ taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdag‘i “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Jalilov B. Dinshunoslik. -Toshkent: 2019.
2. Masharipova G. Dinshunoslik -Toshkent: “Navro‘z” 2020
3. Abdusamedov A.E. Dinalar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.
4. Mo‘minov A. va boshq. Dinshunoslik (darslik). -Toshkent: «Mehnat», 2004.
5. Ochildiev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
6. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
7. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press.1965. P - 77. (P - 19)
8. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janaway. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd.UK. 2003. R - 341.
9. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
10. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharh. -Toshkent: Navruz, 2019
11. Sayid Muxammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixi. -Toshkent: Minxoj, 2003
12. Imam al-Buxoriy: Al-Jami’ as-sahih. IV jildlik. -Toshkent: Qomuslar bosh tahriri, 1991-1993.
13. Islom: bag‘rikenglik va mutaassiblik. Mas’ul muharrir Z.I.Munavvarov. – Toshkent, 1998.
14. Islom (ensiklopediya). Zuhridin Husnidinov tahriri ostida. -Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004
15. Muhammad Yusuf M.S. Hadis va hayot. T.3. –Toshkent: Sharq, 2003. -255 b.
16. Osnovy religiovedeniya. Pod redaksii I.N.Yablokova. Izd. Vtoroe. –M., 1998.
17. Tashanov A. Mutassiblikning ko‘rinishlari va oqibatlari. –Toshkent: Akademiya, 2011. -32 b.
18. Qur’oni karim ma’nolarining tarjiması. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. –Toshkent: Toshkent Islom Universiteti nashriyoti, 2001, 2007.
19. Yassaviy Xoja Axmad Devonı hikmat. -Toshkent: Navruz, 2018
- 20.. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. Toshkent: Noshir, 2016 314-499 -b.
21. Husniddinov Z.M. Islom yo‘nalishlari, mazhablar, oqimlar. –Toshkent: Mavarounnah, 2000.

IV. Elektron ta'lim resurslari

- 10.www.edu.uz.
- 11.www.aci.uz.
- 12.www.ictcouncil.gov.uz.
- 13.www.lib.bimm.uz
- 14.www.Ziyonet.Uz
- 15.www.sciencedirect.com
- 16.www.acs.org
- 17.www.nature.com
- 18.<http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.